82.3
E-50

ENG MASHHUR ERTAKLAR



82.3 | 141375
E-50
Eng mashhur
ertaklar / tarjimon
M. Omon. – T.: G'afur

Китобларни вақтида топшириш варағи

Ж2.3
А-89

ENG MASHHUR ERTAKLAR



G‘afur G‘ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi
TOSHKENT – 2019

JIZZAX DPI
INV № 141375
AXBOROT RESURS MARKAZ

UO‘K 504.74 (1-926.83)
28.6 (ENG MASHHUR ERTAKLAR)
KBK 82.3
A 89

Original maket va dizayn **Shuhrat Mirfayozovniki**

Tarjimon **Muhiddin Omon**

Eng mashhur ertaklar/ tarjimon M.Omon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2019. – 80 b.

UO‘K 504.74 (1-926.83)
KBK 82.3

ISBN 978-9943-5954-9-1

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2019

ETIK KIYGAN MUSHUKCHA


Qadim o‘tgan zamonda bir qishloqda uchta aka-uka yashar ekanlar. Ularning qari otasi bo‘lib, u qishloq tegirmonchisi ekan, kunlardan bir kuni ota og‘ir kasallik tufayli olamdan o‘tibdi, natijada undan o‘g‘illariga kamtarona bo‘lsa-da meros qolibdi. Katta o‘g‘il tegirmonni olibdi, o‘rtancha o‘g‘ilga – eshak, eng kenja o‘g‘il Ivanga esa bor-yo‘g‘i uydagi mushuk meros bo‘libdi.

– Eh, sho‘rginam qursin, men bechora, endi nima qilaman, bu dunyoda qanday kunimni ko‘raman? Qayerdan ish topaman? Nima yeb, nima ichaman? – deya qayg‘uribdi Ivan.

Shunda meros qolgan haligi mushuk yigitning oyoqlariga suykalibdi-da, miyovlagancha tilga kiribdi:

– Ivan, yaxshisi bu yerdan ketamiz. Balki boshqa joydan o‘zimizga munosibroq biror ish ham, boshpana ham topilib qolar...

Mushugining xuddi odamdek gapirayotganligini ko‘rib, Ivan avvaliga hayratdan lol qolibdi, keyin biroz o‘ylab turibdi-da, uning oqilona



maslahatiga rozi bo‘libdi. Shundan so‘ng u zig‘ir tolasidan to‘qilgan eski bir qanorchaga uch-to‘rt bo‘lak javdar non, tomorqasining hosili bo‘lgan kartoshkalardan bir necha dona va yana ozroq olma sharbatidan solibdi.

“Ola – biz juda g‘aroyib juftlik bo‘ldik-da: boshpanasiz qashshoq bir yigit hamda uning gapiradigan mushugi!” – deya o‘ylabdi Ivan, o‘zicha afsuslangandek bo‘lib. Keyin, “tavakkal” deb, boshi oqqan tomonga yo‘l solibdi.

Ular yo‘l yurishib, adoqsiz o‘rmonlardan, keng dala-yu, dashtlardan, yam-yashil o‘tloqlardan o‘tishibdi. Yo‘lda ularga g‘ayrat bilan ter to‘kib ishlayotgan dehqonlar duch kelibdi. Yo‘lovchilarimiz ular bilan samimiy salom-alik qilisharkan:

– Bu bepoyon dalalar, ajoyib hosildor yerlar kimga tegishli ? – deya so‘rashibdi.

– Bu yerlar bahaybat va yovuz sehrgarga qarashli, – deb javob berishibdi dehqonlar. Ivan esa o‘zicha, yaxshiyam men bu yovuz xo‘jayinning qaroli emasman, yo‘qsa, men ham ertadan-kechgacha manavi dehqonlardek mehnat qilib, adoyi tamom bo‘lardim, deya o‘ylabdi.

Ular yo‘l yurib, yo‘l yurishsa-da mo‘l yurib, bir qishloqqa kirib kelishibdi. Bu yerda, ayni paytda ko‘chma bozor qizigandan-qizib turgan ekan. Shunda mushuk Ivanning yelkasiga sakrab chiqibdi-da, uning qulog‘iga:

– Azizim, sen menga bitta qizil etik hamda qarqaraning pati bilan bezatilgan bir shlyapa sotib olib bersang, seni nihoyatda boy qilardim, deya shivirlabdi.



Ivan o‘zining eng so‘nggi chaqalarini sarflab, mushugiga



kattakon, yaltiroq to‘qali bir etik hamda ushbu bozorchadagi eng chiroyli patli shlyapani sotib olib beribdi. Ivan o‘z sherigi yasan-tusan kiyinib, oddiy bir mushukchadan xuddi qirol saroyi a’yonlaridan biriga aylanib qolganligini ko‘rib, judayam xursand bo‘lib ketibdi.

– Xo‘sh, ko‘rinishim qalay? – deya so‘rabdi mushuk, Ivanga ta’zim qilarkan.

– Ajoyib, – debdi Ivan astoydil xushnud bo‘lib.

– Endi, azizim, sen daryo bo‘yiga borgin-da, o‘sha yerda meni kutib turaqol. Mening bunda qiladigan bir-ikkita ishlarim bor, ularni tezda hal qilaman-u ortingdan yetib boraman, debdi Mushukvoy. So‘ngra, sevinchi ichiga sig‘mayotgandek, sakrab-sakrab, haligi yovuz sehrgarga tegishli bo‘lgan dala-dashtlar tomon yugurgilab ketibdi.

Shunday qilib, u yana o‘zlari avval suhbatlashgan dehqonlarga uchrabdi va ularga : “ Hali hayotingiz judayam farovon bo‘lib ketadi, meni aytdi deysizlar”, – deya barchaning kayfiyatini ko‘taribdi. – Faqat bir iltimosim shulki, – debdi u yana, – endi o‘tgan-ketgan kishilar bu yerning egasi kim deya so‘rasalar, siz ularga “Bu yerlarning barisi Markiz Karabasga tegishli”, – deyishingiz kerak bo‘ladi, – deb uqtiribdi.

– Ishonchim komilki, sizlar bundan faqat yutasizlar, – ta’kidlabdi Mushuk. – Mening xo‘jayinim dunyodagi eng odil va mehribon zot, u sizlarni ro‘shnolikka chiqarib, hayotingizga farovonlik keltiradi.

Dehqonlar xuddi odamga o‘xshab kiyinib olgan mushukni ko‘rishib, avvaliga rosa hayron bo‘lishibdi, biroq uning xuddi o‘zlari kabi gapirayotganligini xayrli bir fazilatga yo‘yishib, mushukning iltimosini yerda qoldirmaslikka va’da berishibdi.

Shu payt olisdan qirolning aravasi ko‘zga tashlanibdi. Qirol hashamatli arava derazasidan boshini chiqarib, dehqonlar bilan jilmayib so‘rashibdi

va : – Hoy, odamlar, bu serhosil yerlar, keng qir-u adirlar kimga tegishli? – deb so‘rabdi.

– Markiz Karabasga! – deb javob berishibdi dehqonlar.

– Ha, xo‘jayinlaringiz juda tadbirkor va ishbilarmon ekan, – deya qirol xursandligidan boshini sarak-sarak qilib, yo‘lida davom etaveribdi. Qirolning aravasini uzoqdan ko‘rgan mushuk esa oyog‘ini qo‘liga olib, daryo bo‘yiga, Ivanning huzuriga bug‘doyzorlar oralab yuguribdi. U Ivanning oldiga yetib bormasdanoq, unga baqiribdi:

– Ivan, tezda kiyimlaringni yech-u, o‘zingni daryoga tashla, bir-ikki soniya ichida bu yerdan qirol o‘tadi! – debdi.

– Nimaga endi? – hayratlanibdi sodda Ivan, biroq hamma narsani tushuntirib o‘tirishga fursati qolmaganidan mushuk yana baqiribdi:

– Bo‘laqol, tezda daryoga sakra, deyapman!

Mushuk shu qadar o‘ziga ishonch bilan buyuribdi-ki, Ivan noiloj, egnidagi ko‘ylak va shalvarini apil-tapil yechib, o‘zini daryoga otibdi.

Mushuk esa uning hamma kiyimlarini olib sohil bo‘yidagi qamish-zorga berkitibdi-da, ayyuhannos solib, odamlarni yordamga chaqira boshlabdi:

–Voydod, yordam beringlar, xo‘jayinim... mening xo‘jayinim cho‘kayapti! Kim bor, yordam, yordam beringlar...

Qirol bu qiy-chuvlarni eshitib, aravasini to‘xtatishlarini buyuribdi. Mushuk ham xuddi shuni kutib turgandek, yugurib shohona aravaning oldiga kelibdi-da, tavoze bilan ta’zim qilib debdi:

– O, oliy hazratlari, boshimizga og‘ir falokat tushdi. Xo‘jayinim bilan bamaylixotir sayohat qilib yurgan edik, kutilmaganda, bizga qaroqchilar hujum qilishdi. Ular xo‘jayinimning bor-budini tortib olishdi, hatto kiyimlarini ham yechib ketishdi, bunday isnodga chiday olmagan xo‘jayinim, o‘zlarini daryoga otdilar.

– Xo‘sh, kim ekan o‘sha sening oriyatli xo‘jayining? – so‘rabdi qirol.

– O, marhamatli oliy hazratlari, ular nihoyatda oliyjanob zotdirlar-ki, ularni hamma birdek hurmat ila tilga oladi. Ular Markiz Karabas janoblarining shaxsan o‘zlari! – debdi alohida g‘urur bilan mushukvoy.

Shunda qirol o‘zining sandiqlaridan birini ochibdi-da, undan eng yaxshi liboslaridan olib, mushukning qo‘liga tutqazibdi.

Qirolning kiyimlari Ivanga loppa-loyiq kelibdi, buning ustiga judayam yarashibdi. Ivanning bunday shohona libos kiyganini aravaning derazasidan qirolning qizi, kenja malika ham ko‘rib turgan ekan, u Ivanga mayin tabassum hadya qilibdi.

Etik kiygan mushukcha, bunday xayr-u saxovat uchun qirolga minnatdorlik izhor qilib, uni Markizning saroyiga ziyofatga taklif etibdi.

– O, marhamatli va mehribon zoti oliylari, Sizni va malikayi muhtaramamizni, qolaversa, mana bu barcha saroy a’yonlarini qasrimizga tashrif buyurib bir kun bo‘lsa-da, aziz mehmonimiz bo‘lishingizni so‘rayman. Zero, Sizlar uzoq yo‘lda horib-charchagansizlar, bizning kamtarona ziyofatimizda dam olib, hordiq yozardingizlar, – debdi mushuk ajoyib lutf bilan. Keyin yana qo‘shib qo‘yibdi: – Faqat bir iltimos, yo‘lda biroz shoshilmasdan yurasizlar, zero, bizning xizmatkorlar, Sizdek ulug‘larga munosib tadorik ko‘rishga ulgursinlar. Men esa Sizlardan





avvalroq boraqolay, Markiz Karabasning shaxsan o‘zlari Sizlarga yo‘l boshlab boradilar.

Mushuk shunday deya, yana bug‘doyzorlar oralab, to‘g‘ri yovuz sehrgarning saroyi tomon chopqillab ketibdi.

Mushuk sehrgarning qasriga kirib borganida, yovuz sehrgar o‘z xonalaridan birida dam olib o‘tirgan ekan.

– O, buyuklardan buyuk sehrgar, senga salomlar bo‘lsin! – deya murojaat qilibdi unga mushuk, baland ovozda.

Bahaybat va yovuz sehrgar, umrida hech qachon etik kiygan, qolaversa, xuddi odamga o‘xshab gapiradigan mushukni ko‘rmagan ekan. Bu holat uni juda qiziqtirib qolibdi. Va u mushukka yuzlanib so‘rabdi:

– Xo‘sh, g‘aroyib jonivor, ayt-chi, mening huzurimga nima ish bilan kelding?

– Men sening huzuringga bir narsani: ya’ni haqiqiy sehrgar nimalarga qodir ekanligini bilish uchun keldim, – debdi mushuk. – Mana, masalan, sen o‘zing istagan qiyofaga kira olasanmi? Aytaylik, hozir bir dumalab sherga aylana olasanmi?! – deya o‘smoqchilab so‘rabdi.

– Albatta, shuyam ish bo‘ptimi? – debdi haybatli yovuz sehrgar va bir soniyada sherga aylanibdi.

Mushuk unga hayron bo‘lib qarabdi-da, sherga yaqin kelib uning uzun yollarini siypalab , qulog‘iga shivirlabdi:

– Ha, qoyil. Ammo ayt-chi, sendek buyuk sehrgar, aytaylik, birorta, arzimas, mittigina jonivorga... masalan...masalan, sichqonchaga ham aylanishi mumkinmi? – deb so‘rabdi.


– Nega endi men sichqonga aylanishim kerak ekan?! Zaril kepti-mi-a? – hayron bo‘libdi haybatli yovuz.

– Haligi, nima desam ekan, haligi... Sen shunday qilsang, o‘zingning har qanday qiyin mo‘jizalarni ham qila olishingni isbotlagan bo‘lardingda, – deya avrabdi uni mushukvoy. – Men yaqinda dehqonlardan bir gapni eshitdim: qo‘shni qirollikda yashovchi senga o‘xshagan bir sehrgar hatto eng kichkina o‘rgimchakka ham aylana olarkan! Qoyilmisan?!

– Ha, ha, shuyam ish bo‘pti-yu, mening uchun mumkin bo‘lmagan mo‘jizaning o‘zi yo‘q, – hayqiribdi yovuz sehrgar va birin-ketin o‘z qiyofasini o‘zgartira boshlabdi.

Avvaliga u it qiyofasiga kiribdi. Bundan mushukvoy juda qo‘rqib ketib, har ehtimolga qarshi, bir sakrab shkafning ustiga chiqib olibdi. Keyin sehrgar o‘rdakka aylanibdi. Mushukvoy bundan maroqlanib, ishtahasi ochilib, endi uni tutib olaman deb, panjalarini cho‘zmoqchi ekan, sehrgar yana qiyofasini o‘zgartirib, kalamushga aylanibdi. Nihoyat u bor kuchini to‘plab kichkinagina sichqonga aylanibdi va stol ustidagi non uvoqlarining oldiga kelib o‘rnashib olibdi. Shunda bizning oqil mushukvoyimiz fursatni boy bermasdan, uni bir hamlada tutib olibdi-yu, yeb qo‘ya qolibdi.

Xuddi shu vaqt, saroy hovlisiga qirolning dabdabali aravasi kelib to‘xtabdi. Ivan, aravadan tushishni ham, tushmaslikni ham bilmay, hayiqibroq turibdi, chunki u hali o‘zining mushugi bunda





nima ishlar qilib yurganidan bexabar ekan-da. Biroq unga malika judayam yoqib qolganidan: “tavakkal, nima bo‘lsa-bo‘lar”, – degan qarorga kelibdi-yu qirolning ham, malikaning ham aravadan tushishlariga yordam beribdi. Ammo, Ivan buyog‘iga yana kalovlanib, atrofga alang-jalang termilib turaveribdi.

Uning baxtiga, shu payt qasr eshiklari oldida etik kiygan mushukvoyimiz paydo bo‘libdi va g‘aroyib bir tavoze bilan mehmonlarni qasr ichkarisiga taklif etibdi. Mehmonlar ichkari kirishlari bilan yana u: “Tantanali ziyofat boshlansin, taomlar dasturxonga tortilsin!”, – deya farmon beribdi o‘ktam tovush ila.

Mehmonlarning qorinlari to‘yib, o‘zlari nihoyatda xursand bo‘lishib, orom olgani saroy mehmonxonalari tomon chiqishgach, mushukvoy Ivanga bu yerda bo‘lib o‘tgan barcha voqealarni, xususan, yovuz va bahaybat sehrgardan qanday qutulganligini so‘zlab beribdi. So‘zining nihoyasida esa:

– Bir narsani hech qachon unutma, azizim Ivan, Sen endi shu daqiqadan boshlab, ushbu yerlarning haqiqiy egasi – Markiz Karabassan va hamisha shunday bo‘lib qolasan, – deya qo‘shib qo‘yibdi. – Senga maslahatim, ertaga tong otishi bilanoq, qiroldan qizining qo‘lini so‘ra, ya’ni malikaga uylanish niyatingni oshkor et. Qo‘l ostingdagi dehqonlaringga esa mehribon bo‘l, ularga yaxshi haq to‘la. Meni aytdi dersan, agar shunday qilsang, hammasi yaxshi bo‘ladi...

Ivan uzoq vaqt o‘zining hozirgi ahvoliga ishonmasdan, aqli bovar qilmasdan turib qolibdi. Nahotki, shularning barisi mening bittagina mushugimning sharofatidan bo‘lsa-ya, – deya o‘ylabdi u. “Kuni kechagina men kim edim, qashshoq, boshpanasiz bir odam edim, bugun esa...bugun mana shunday dabdabali saroyda yashayapman...”

Qirol Markiz Karabasning mol-u mulki bilan tanishib, ko‘rganlaridan qoniqish hosil qilibdi: yerlar nihoyatda serhosil, qasr ham ulkan va

dabdabali... U shularni o‘ylab, vaqtni cho‘zmasdan o‘z qizini Ivanga berishga rozi bo‘libdi hamda malikaga sep sifatida o‘z boyligining yarmisini ham hadya etibdi...



Tez orada Ivan va malikaning to‘yi bo‘lib o‘tibdi. Bu dabdabali va hashamatli to‘y bir-necha kun davom etibdi. Unda zamonaning taniqli bahodirlari, jangchi ritsarlari, qirol-likning barcha amaldor-u to‘ralari, a’yonlari-yu boyonlari qatnashibdilar. Darvoqe, oddiy fuqarolarni ham unutishmabdi: ular uchun saroy hovlisida alohida dasturxon yozilibdi: mehmonlar to sahargacha yeb-ichishib, yosh kelin-kuyovning sha’niga, qolaversa, qirolga hamda etik kiygan mushukchaga ham ezgu tilak-istaklar aytishibdi.

Mushukvoy ham to‘yda muhtaram mehmon sifatida e’zoz topibdi. Unga to‘y munosabati bilan yangi etik, shlyapa, shuningdek, qirol pech-kasi yonidan yotoqxona hadya etilibdi; yana Mushukvoyga Qirol mol-mulkining boshqaruvchisi degan yuksak martaba ham berilibdi. Ivan hamma masalada u bilan maslahatlashar, do‘stining nasihatlariga amal qilarkan. Saroydagi xizmatkorlar ham Mushukvoyga alohida hurmat-ehtirom ko‘rsatisharkan, zero, aynan shu mushuk tufayli ular yovuz va zolim sehrgarning zulmidan ozod bo‘lishibdi-da.

Ammo endi mushukning eng yaxshi ko‘rgan ishi – etigini ham, shlyapasini ham yechib qo‘yib, Ivanning yoki malikaning tizzasiga chiqib o‘tirish ekan. Tunlari Mushukvoy yosh kelin-kuyovga o‘zining ajoyib mushukcha qo‘shiqlarini kuylab berarkan, axir u qanchalar oqil va dono bo‘lsa ham, baribir, aslini olganda o‘zining kamtarin bir mushuk ekanligini sira unutmagan ekan-da...

ZOLUSHKA

Qadim o‘tgan zamonda nihoyatda chiroyli va mehnatsevar bir qiz bo‘lgan ekan. Uning ota-onasi boy-badavlat va mehribon insonlar bo‘lib, qizlarini yer-u ko‘kka ishonmay yaxshi ko‘risharkan. Qizcha ularning bag‘rida o‘ynab-kulib bir umr saodatmand yashashi mumkin ekan-u, biroq, baxtga qarshi uning onasi og‘ir dardga chalinib,olamdan o‘tib qolibdi. Qizcha va uning otasi onaizorning vafotidan chuqur qayg‘uga tushibdilar. Azadorlik muddati o‘tgach, otasi ming bir istihola bilan qiziga debdi:

– Asal qizim, biz endi bu hayhotday katta uyda yolg‘iz o‘zimiz yashay olmaymiz. Balki, men ikkinchi bor turmush qurarman. Agar sen yo‘q demasang, bir badavlat beva ayol bor. U senga ona bo‘lish niyatida. Sendan iltimosim shulki, sen uning gaplariga quloq sol, darvoqe, u biznikiga ikkita qizini ham ergashtirib keladi, ularga ham o‘z opalaringdek munosabatda bo‘lgin.

– Yaxshi, otajon, – deya javob beribdi qizcha, – hammasi siz aytgandek bo‘ladi.

Oradan ko‘p o‘tmay, qizchaning otasi uylanibdi, to‘ydan keyin qizchaning o‘gay onasi o‘z qizlari bilan ularning katta uyiga ko‘chib kelibdi. Biroq o‘gay ona va opa-singillar bechora yetim qizchaga hecham mehr ko‘rsatishni istashmabdi. Ular nihoyatda palapartish, tartibsiz qizlar bo‘lib, uyning duch kelgan joyida o‘zlarining qimmatbaho kiyim-kechaklarini yechib ketishar, hamma narsani istalgan joyga irg‘itib yuboraverisharkan. Ularning dastidan oshxona ham juda tartibsiz va irkit bo‘lib ketibdi. Iflos bo‘lmagan birorta ham idish-tovoq qolmagach, o‘gay ona qizaloqni chaqirib, oshxonani toza-lashni buyuribdi. Qizcha indamasdan barcha idishlarni, ko‘zachalar-u tovalarni, likopcha-yu kosalarni yuvibdi, oshxonaning ichini ham






chinni-chiroqdek qilib tozalab chiqibdi.

Hamma ishlarni qilaverganidan uning bejirim ko‘ylakchasi turli dog‘-dug‘larga belanibdi, sochlari to‘zg‘ib, paxmoq bo‘lib ketibdi, yuzlari esa pechkadagi kul va qurumdan qop-qora tusga kiribdi. Buni ko‘rgan o‘gay opalari qizchaga qora qurum yoki kul ma’nolarini anglatuvchi “zola” so‘zidan kelib chiqib, “Zolushka”, ya’ni Kuloyim deb laqab qo‘yib olishibdi. O‘gay onasi esa kun bo‘yi uni tinch qo‘ymaslik uchun hali u ishni, hali bu yumushni o‘ylab topaverarkan.

– Zolushka, qani bizning kiyimlarimizni yuvib qo‘y-chi! Zolushka, qani paypoqlarga yamoq sol! Zolushka, uni qil, Zolushka buni bajar! Xullas, bu uyda kun bo‘yi ana shunday dag‘dag‘alar bir lahza bo‘lsin tinmas ekan.

Kech tushganda qizcha shu qadar holdan ketarkan-ki, hatto yuz-qo‘llarini yuvib, kiyimlarini almashtirishga ham majoli yetmas ekan. Shunda u pechka yonidagi o‘rindiqqa o‘tirib, ko‘zlarini yumarkanda, bir zumda uxlab qolarkan.



Shunday kunlarning birida mamlakatda g‘aroyib xabar tarqalibdi: emishki, navqiron shahzoda o‘z saroyida tantanali raqs kechasi, ya’ni bal uyushtirayotgan ekan. U o‘z diyoridagi barcha balog‘at yoshidagi qizlarni ushbu kechaga taklif etib, ularning orasidan eng sohibjamolini o‘ziga bir umrlik yor qilib tanlar emish.

Bu xabarni eshitgan Zolushkaning o‘gay onasi ham apil-tapil savdo do‘konidan raqs liboslarini tikish uchun zarur bo‘ladigan turli qimmatbaho matolar, xususan, Damashqdan keltirilgan shoyi va ipaklardan, atlas-u zarboflardan, to‘qima to‘rli yoqalar-u rangdor va jilokor tasmalardan xarid qilibdi.

U Zolushkaga: “Mening qizlarimga raqs ko‘ylaklarini sen tikib berasan”, – deya buyuribdi.

Bechora qiz bir necha kun tinim bilmay, o‘gay opalari uchun biri-biridan chiroyli liboslar tikibdi. Bu ish unga oson bo‘lmabdi. Chunki o‘gay opalari nihoyatda qo‘pol gavdali, boz ustiga xunuk qizlar ekan-da: Zolushka ularning liboslarini tikib bo‘lib, “qani kiyib ko‘ringlar-chi, men bir ko‘-ray”, – desa, ular yangi ko‘ylakni kiyib olishib, bir egilishi bilanoq, nafis matodan tikilgan ko‘ylaklar chok-chokidan so‘kilib ketaveribdi. Natijada, bechora Zolushka hamma ishni yana qaytadan boshlashga majbur bo‘larkan.

– Voy-vo-yey, yelkalarim og‘rib ketdi-ku, – derkan, nozlanib bitta opasi, oynaning atrofida o‘zining yangi libosini ko‘zko‘zlab aylanarkan.

– Bu kiyimlaring namuncha beso‘naqay, ularda bemalol harakatlanib ham bo‘lmaydi-ya! – deya ijirg‘anarkan ikkinchi opasi, gavdasini u oyog‘idan bu oyog‘iga tashlab.

Raqs ko‘ylaklari tayyor bo‘lgach, Zolushka opalarining bayramona soch turmaklari bilan mashg‘ul bo‘libdi. Bu borada ham u injiq va tannoz begoyimlarning ko‘nglidagini topishga rosa qiynalibdi.

Nihoyat ularning barcha tadorig-u tayyorgarliklari tugabdi, shunda charchab, holdan toyib qolayozgan Zolushka o‘gay onasidan: – Men ham balga borsam maylimi? – deya ohista so‘rabdi.

– Sen balga-ya?! Ha-ha-ha! – Masxaralab kulibdi o‘gay ona. – O‘ylab gapirayapsanmi, ovsar qiz! Sen avval, aft-angoringga bir qaragin, kimlarga o‘xshaysan! Kiyimlaring g‘ijim, yag‘iri chiqib ketgan bo‘lsa, boshmoqlaring ham adoyi tamom bo‘lgan... Shu alpozda hali balga borasanmi-ya! He, ko‘nglingga kuydirgi chiqsin ...

Onalarining bu gapidan Zolushkaning tantiq opalari rosa miriqib kulishibdi, o‘gay onasi esa yana qo‘shib qo‘yibdi:

– Senga o‘xshagan yalangoyoqlarga balda pishirib qo‘ygani yo‘q. Yaxshisi sen biz qaytgunimizcha uyni yig‘ishtirib qo‘y! Tushundingmi...

Kech tushibdi, qizning o‘gay opalari va o‘gay onasi dabdabali aravaga o‘tirishib, saroyga yo‘l olishibdi. Hayhotdek uyni bir lahzada jimjitlik egallabdi. Zolushka esa biror muddat mulzam bo‘lib, o‘ksinib turib qolibdi. Unga judayam alam qilib ketibdi, xo‘rligi kelibdi: Chunki u ham barcha qizlar kabi shahzoda tomonidan uyushtirilgan raqs kechasiga hech bo‘lmasa, umrida bir marotaba bo‘lsa-da borishni orzu qilar ekan-da! Biroq, shu payt otasiga “o‘gay onamning, opalarimning barcha aytganlarini so‘zsiz bajaraman”, – deya bergan va’dalari esiga tushib, ko‘zyoshlarini artibdi-da, yana uy yumushlariga kirishib ketibdi.

Uylarni top-toza qilib supurib-sidirgach, Zolushka bog‘ga chiqib, bir necha daqiqa u yerdagi o‘rindiqqa cho‘kibdi.

– Eh, qaniydi shu lahzada men ham saroyda, shahzodaning raqs kechasida bo‘lib qolsaydim, hech bo‘lmasa, bir martagina xushqomat va o‘ktam shahzoda bilan raqsga tushsaydim! – deya xo‘rsinibdi Zolushka. U shunday derkan, beixtiyor shahlo ko‘zlaridan yumalab, qop-qora kuyali yuzlarini yuvib tushayotgan ko‘zyoshlarini ohista artib qo‘yibdi.

Xuddi shu payt, Zolushkaning ko‘z oldida kutilmaganda, nihoyatda chiroyli bir ayolning chehrasi namoyon bo‘libdi, u o‘ta bejirim va sehrli bir tarzda tovlanib turgan ko‘ylak kiyib olgan emish.

Qizcha bundan cho‘chib, o‘rindiqdan sakrab turib ketgan ekan, haligi sirli ayol nurli kulimsirabdi-da, shunday debdi:

– Zolushka, sen mendan cho‘chima. Men ezgulik farishtasi bo‘laman.

– Ezgulik farishtasi? – ishonqiramay so‘rabdi Zolushka.

Farishta qizga qarab yana bir bor jilmayibdi-da, qo‘lidagi sehrli tayoqchasini avval qizga, keyin esa shu atrofdagi egatda o‘sib yotgan, kattakon oshqovoqqa tekkizibdi. U shunday qilishi bilanoq, g‘aroyib



mo‘jiza yuz beribdi: Zolushkaning egnidagi odmi va kir kiyimlari nihoyatda go‘zal raqs libosiga, haligi bahaybat oshqovoq esa ajoyib aravaga aylanib qolibdi. Bu sehr-u jodudan shu atrofda quvlashib yurgan ikkita mitti sichqonchalar ham bebahra qolishmabdi: Ezgulik farishtasi ularning ham boshiga sehrli tayoqchasini tekkizgan ekan, ikkala sichqon ham bir yumalab, uzun yollari hilpirab turgan oppoq tulpor otlarga aylanishibdi.

– Qani, endi raqs kechasiga boraqol, azizam! – debdi ezgulik farishtasi.

– Nahotki, buning iloji bo‘lsa? Men ham balga borishim mumkinmi axir? – hayratlanib so‘rabdi Zolushka. Binobarin, u hali o‘gay onasining bundan bir necha daqiqa oldin, o‘ziga aytgan haqoratli so‘zlarini ham, zaharxanda kulgisini ham unutmagan ekan-da.

Sehrgar farishta nurli jilmayibdi-da , qo‘shib qo‘yibdi:

– Boraqol, azizam Zolushka, hech narsadan cho‘chima. Sen dunyodagi eng go‘zal qizsan. Ammo, bir narsani aslo yodingdan chiqarma: Sen shahardagi soatlar tungi roppa-rosa 12 ga bong urguncha saroydan chiqib

ketmog‘ing lozim. Chunki, tun yarmida barcha sehr-u afsunimiz o‘z kuchini yo‘qotadi. Ya’ni, sening mana bu oppoq tulporlaring ham, dabdabali aravang ham asl holiga qaytadi, ustingdagi liboslaring esa odmi kiyimlaringga aylanadi.

Zolushka, bu yaxshiliklari uchun sehrgar farishtaga minnatdorlik bilan ta’zim qilib, aravaga o‘tiribdi. Oppoq tulporlar esa aravani yeldek uchirib, to‘g‘ri Saroyga olib ketishibdi.

Saroyga kiraverishda barcha begoyim qizlarni shahzodaning shaxsan o‘zi ehtirom bilan kutib olibdi. U har bir qizga alohida diqqat-e’tibor bilan tikilar, ular orasidan o‘ziga yor qidirar ekan. Bu qizlar orasida chindan-da go‘zal, orasta, qaddi-qomatlari kelishganlari ham, ko‘rk-u chiroyi, liboslari u qadar e’tiborni tortmaydiganlari ham ko‘p ekan. Biroq, ularning hammasining qalbida bir orzu – “Shahzoda meni o‘ziga qayliq qilib tanlaydi”, – degan o‘y bor ekan. Bu sanamlar orasida Zolushkaning ikki o‘gay opasi ham bo‘lib: ular shahzodaning har bir xatti-harakatini sinchkovlik bilan kuzatishar va imkon qadar uning nazariga tushish, bal sohibi aynan ularni raqsga taklif etishi uchun tirishib, turli noz-u karash-malar qilisharkan...

Biroq shu mahal shahzodaning nigohi bir notanish sohibjamolga tushibdi-yu uning yuragi hayajondan hapriqib ketibdi. Bu notanish sohibjamol raqs kechasiga shakli shamoyili xuddi oshqovoqni eslatuvchi hashamatli aravada kelgan ekan. Biroq uning qaysi shahardan, qaysi muzofotdan kelganligini hech kim bilmas emish...

Qizning egnidagi liboslari juda chiroyli, nozik oyoqlaridagi poyabzali ham nihoyatda xushbichim bo‘lib, u yengil zarhal matodan tikilgan ekan. Albatta, bu o‘zimizga yaxshi tanish Zolushka ekan-da. Qiz judayam yengil qadam tashlar, undagi viqor va salobat, malohat va joziba boshqa hech bir qizda yo‘q emish. Shahzoda ham ilgari hech qachon bunday malohatli qiz bilan raqs tushmagan ekanligidanmi, butun oqshom mobaynida undan ko‘zlarini uzolmabdi va barcha raqslarga u bilan birga tushibdi.

JIZZAX DPI
INV № 141375
BOROT RES... KARI

– Siz kimsiz, qayerdan keldingiz?.. – deya ilhaq so‘rabdi shahzoda o‘ziga notanish sohibjamoldan. Biroq qiz uning savollariga lom-mim demay, iboli bir tabassum qilib qo‘yibdi, xolos. Bundan shahzodaning unga nisbatan qiziqishi yuz chandon oshibdi.

Bal uzoq vaqt davom etibdi. Notanish sohibjamol, har daqiqada qasrning mahobatli devorlarida osig‘liq soatlarga, allanechuk xavotirlik bilan nigoh tashlayveribdi.

Tun yarmiga ham oz qolibdi. Shahzoda o‘zi bilan raqsga tushgan sohibjamol qizga unashtirilishini endigina e’lon qilmoqchi bo‘lib turgan ekan. Biroq, shu payt Zolushka soatlarga oxirgi bor qarabdi-yu, yana bir necha soniya ichida ular tungi 12 ga bong urishi mumkinligini payqab, o‘ziga oshiq bo‘lib qolgan shahzodaning quchog‘idan qochib chiqib, marmar zinapoyalardan pastga qarab o‘qdek uchib ketibdi.





Shahzoda Zolushkaning ortidan chopib, uni tutib qolmoqchi bo‘libdi: hatto u saroy hovlisiga qadar yugurib chiqibdi, ammo bu qisqa vaqt ichida qiz allaqachon baland bo‘yli sarv daraxtlari o‘sib turgan xiyobonga yetib, ular ortiga berkinishga muvaffaq bo‘libdi. Qiz shoshganidan, oyog‘idagi bitta poyabzali yechilib, saroyning zinapoyasida tushib qolganligini payqamabdi.

Shu payt tun yarimlabdi va sehrgar farishtaning hamma aytganlari ijobat bo‘libdi. Barcha afsunlar tarqab, go‘zal arava ham unga qo‘shilgan oppoq yoldor tulporlar ham ko‘zdan g‘oyib bo‘lishibdi. Qiz esa bu paytda daraxtlarning panasida, o‘zining eski, ohori to‘kilib ketgan kiyimlarida turarkan.

Qizning nozik oyoqlaridagi haligi bir poyi zinada tushib qolgan yaltiroq poabzalgina afsundan chetda qolibdi. Biroq, Zolushkaning eski kiyimlariga u hecham mos emas ekan, shuning uchun qiz uni oyog‘idan yechib olishga majbur bo‘libdi.

Qiz bu g‘aroyib poyabzalga tikilib: “Yo tavba, nimaga u afsunga bo‘ysunmasdan asl holicha qoldiykin-a?” – deya hayron bo‘libdi. Shunday bo‘lsa-da, u har ehtimolga qarshi, bu g‘aroyib poyabzalni o‘z fartugining old cho‘ntagiga berkitib qo‘yibdi.

Bu paytda nihoyatda hayajonlangan shahzoda qizning qasr zinalarida tushib qolgan

ikkinchi poy poyabzalini topib olibdi va: “Bu mening mahbubamdan qolgan yagona yodgorlik-ku, axir!”– degan o‘y bilan uni qo‘liga olibdi.

Zolushka esa yalangoyoq holda uyiga qarab chopqillabdi. U uyiga yetib kelib, eshiklarni mahkam qilib tambalabdi va cho‘ntagidan yaltiroq poyabzalni chiqarib, uni dastro‘molga o‘rab-chirmabdi-da, devor bilan pechkaning oralig‘idagi tirqishga berkitib qo‘yibdi.

Ayni shu mahal uning o‘gay onasi va tantiq opalari allanechuk qiy-chuv, baqir-chaqirlar bilan uyga kirib kelishibdi:

– Bu qanday bedodlik! Dahshat! Shahzoda o‘z qaylig‘ini yo‘qotib qo‘ydi! – deya ayyuhannos solibdi katta opasi.

– Bema’nilik! Ahmoqlik! – qichqiribdi kichik opasi ham undan qolishmay.

Keyin ikkisi ham bir-birlariga qarab:

–Yo tavba, nega u bizlardan birimizni o‘ziga qayliq qilib tanlamadi-ya?! – deyishibdi. – Bizlar hecham qochib ketmas edik! – deya olishibdi. Zolushka ulardan hech narsa so‘ramabdi.U shahzodaning raqs kechasi mening uchun hecham qiziqarli emas, degandek o‘zini uyqusi kelayotgandek qilib ko‘rsatibdi. Nihoyat uning baqiroq opalari uxlash uchun o‘z xonalariga kirib ketishgach, Zolushka ham o‘zining pechka yonidagi mo‘jazgina o‘rindig‘iga cho‘zilib, uyquga ketibdi.

Dunyodagi eng go‘zal sohibjamolning raqs kechasidan qochib ketganidan so‘ng shahzoda mutlaqo oromini yo‘qotibdi. Chunki u o‘sha notanish sohibjamolga chindan-da oshiq-u beqaror bo‘lib qolgan ekan-da. U saroy zinalarida tushib qolib, o‘zining mahbubasidan yagona yodgorga aylanib qolgan mo‘jaz poyabzalni qo‘liga olib chuqur o‘yga tolibdi.

– Nima qilish mumkin? Nima qilsak ekan-a? – unga qo‘shilib, mushohada qilishga kirishib ketibdilar, xavotirga tushgan saroy a’yonlari ham.

Qirol oila a’zolari qayerga borishmasin, o‘sha notanish sohibjamol haqida odamlardan so‘rab-surishtirisharkan. Afsuski, u qizni hech kim

tanimas, uning saroy ahliga yaqin qaysi bir oilaga mansubligini ham bilishmas ekan.

Shunda shahzoda o‘zining eng yaqin sirdoshi va sadoqatli do‘sti bo‘lgan bir navqiron saroy a’yonidan yordam so‘rabdi. Ya’ni bu navqiron yigit butun mamlakat bo‘ylab sayohatga chiqishi, har bir shaharda, qishloq va hovlida bo‘lib, ulardagi jamiki balog‘at yoshidagi qizlarga, Zolushkaning o‘sha bizga tanish yaltiroq poyabzalini kiydirib ko‘rmog‘i hamda ushbu poyabzal oyog‘iga loppa-loyiq kelgan qizni axtarib topmog‘i lozim ekan.

Ushbu maqsadda sayohatga chiqqan navqiron a’yon hamda sirli sohibjamolning mo‘jaz poyabzali to‘g‘risidagi xabar bir zumda butun mamlakatga ovoza bo‘lib ketibdi. Mamlakatdagi har bir oyimqiz baxt va iqbol timsoliga aylangan ushbu poyabzal albatta uning oyog‘iga loyiq kelishidan umidvor ekan. Zolushkaning ikki o‘gay opalari ham xuddi shu fikrda ekanlar. Biroq ularning oyoqlari-yu, tovonlari shunaqangi ham beso‘naqay ekan-ki, haligi mo‘jaz poyabzal ular oyog‘ining hatto bosh barmog‘iga ham to‘g‘ri kelmabdi.

Shu payt, endigina ushbu hovlidan chiqib ketmoqchi bo‘lib turgan navqiron a’yonning ko‘zlari beixtiyor bir to‘da qizlar ichida o‘zining nurli chehrasi, qandaydir bir malohati bilan ajralib turgan qizga tushibdi.

– Muhtaram oyimqiz, iltimos qilaman, mening yonimga kelsangiz! – deya unga iltifot bilan murojaat qilibdi a’yon. – Shahzodamizning buyrug‘iga ko‘ra ushbu poyabzalni mamlakatdagi har bitta oyimqiz kiyib ko‘rmog‘i kerak.

Ana shundan keyin qiz uning yoniga yaqinlashibdi. Shunda atrofdagilarning barchasi a’yonning “O-o-o! Ana xolos!” – degan quvonchli hayqirig‘ini eshitishibdi. Chunki mo‘jaz bu poyabzal Zolushkaning oyog‘iga nafaqat loyiq kelibdi, balki aynan unga atab tikilgandek, quyib-qo‘ygandek yarashib turgan ekan-da!



Zolushkaning o‘gay onasi buni ko‘rib, alamidan qip-qizarib ketibdi, o‘gay opalari esa ayyuhannos solib baqira ketibdilar:

– Axir bu Zolushka-ku! Bizning cho‘rimiz. U oddiy oshpaz qiz, zinhor-bazinhor shahzodaning balidan qochib ketgan sirli mahbuba emas! – deyishibdi ular alamzadalik bilan.

Shunda Zolushka o‘zining fartugi cho‘ntagidan haligi bejirim poyabzalning ikkinchi poyini ham olibdi. Zero, u saroydan vakil kelishi haqidagi xabarni eshitgach, uni pechka ortidagi tirqishdan olib, cho‘ntagiga solib qo‘ygan ekan.

– Mana poyabzalning ikkinchi poyi! – debdi, Zolushka saroy a’yoniga kulimsirab qararkan.

Buni ko‘rgan saroy a’yonnining ko‘nglida, o‘z shahzodasining qalbini rom etgan mahbuba aynan shu qiz ekanligiga zarracha shubha qolmabdi. Natijada u darhol o‘zi bilan bu sohibjamolni olib Saroyga ravona bo‘libdi.

Shahzodaning ko‘zlari Zolushkaga tushishi bilanoq, uning yuragi yana hayajondan hapqirib ketibdi. Garchi ayni daqiqalarda uning oldida judayam sodda va kambag‘al bir cho‘ri qiz namoyon esa-da, bu qizning istarasidan allanechuk sehrli bir nur taralib turarkan. Uning ibo va hayoga burkangan tabassumi bir lahzada barcha qalblarni rom etibdi, ko‘zlarida esa o‘sha shahzodaga tanish olov va otash yolqinlanarkan. Qiz juda yengil va go‘zal tarzda xiromon yurganidan chetdan qaraganlarga u xuddi raqs tushayot-

gandek tuyilarkan. Uning nozik oyoqlarida esa o‘sha tanish yaltiroq poyabzal ko‘zlarni qamashtirgudek tovlanarkan.

Shahzoda mahbubasini topganligidan shu qadar sevinib ketibdi-ki, natijada shu paytning o‘zidayoq to‘y kunini belgilabdi. Oradan ikki kun o‘tar-o‘tmas shahzoda Zolushkani o‘z nikohiga olibdi. To‘yga Zolushkaning o‘gay onasi va opalarini ham taklif etishibdi. Ular Zolushkaga yetkazgan jabr-u sitamlari, ozorlari uchun tavba qilishib, undan uzr so‘rashibdi, Zolushka esa ularni kechiribdi.

Shahzodaning barcha yaqinlari, qarindosh-urug‘lari ham rosa xursand bo‘lishibdi. Hamma birdek yosh va bavrasta malikani yaxshi ko‘rib qolibdi. Zero, Zolushka nafaqat chiroyli va malohatli, balki ayni paytda nihoyatda mehribon, xushmuomala hamda mehnatsevar qiz ekan-da.

Oshiq-u beqaror shahzoda o‘z malikasining yonidan bir lahza ham uzoqlashmas, uning istalgan xohishini bajo keltirar, doim unga parvona va g‘amxo‘r bo‘larkan. Ba’zan esa u hazil aralash malikani mening suyukli “Zolushkam”, deya erkalab qo‘yarkan. Shunday qilib bu oshiq-ma’shuqlar uzoq va baxtli hayot kechirib, murod-maqsadlariga yetibdilar.



QIZIL QALPOQCHA

Qadim o‘tgan zamonda bir kichkinagina uychada bir qizcha yashagan ekan. Bu qizchaning ismi aslida qanday ekanligini hech kim bilmas ekan. Sababi – bu qizaloq doim alvon tusli ko‘ylak bilan qizil qalpoqcha kiyib yurganligidan, hamma uni Qizil Qalpoqcha deb atar ekan. Hatto uning onasi ham o‘z qizini shunday deb chaqirishni xush ko‘rarkan, zotan bu ism qizchaga nihoyatda mos ekan-da.

Qizil Qalpoqchaning keksa buvisi ham bo‘lib, u o‘rmon ichkarisidagi bir uyda yasharkan. Kunlardan bir kuni qizchaning onasi unga:

– Jonim qizim, buving betob bo‘lib qolibdi. Sendan iltimos, manavi savatchani olgin-da, tezda ularga yetkaz. Savatchaga men buvijoning uchun shirin kulcha, turli dorivor giyohlar, ozroq asal hamda bir shisha bo‘za solib qo‘yganman. Sen ularni zudlik bilan olib borgin. Ha, tag‘in esingdan chiqmasin, o‘rmondagi so‘qmoqdan hech qayoqqa chalg‘imagin, yo‘lda begonalar bilan gaplasha ko‘rma, – deya tayinlabdi.





– Xo‘p bo‘ladi, oyijon, – debdi Qizil Qalpoqcha odob bilan va so‘qmoq yo‘ldan o‘rmon tomonga ravona bo‘libdi.

O‘sha o‘rmonda bir ayyor bo‘ri ham yashar ekan. Bu bo‘ri ahyon-ahyonda Qizil Qalpoqcha o‘rmondagi so‘qmoq bo‘ylab buvisinikiga ketayotganida, uni daraxtlar orqasidan turib kuzatib yurarkan. Biroq, shu paytgacha hech qachon Qizil Qalpoqchaga teginishga jur’at qilolmagan ekan. Lekin, o‘sha kuni u nihoyatda och ekan: “Qizil Qalpoqchani tutib yesam, u menga ajoyib bir tushlik bo‘lar edi-da, – deya o‘ylabdi. – Axir hadeb o‘rmon mevalari-yu, qo‘ziqorin yeb yurish jonimga tegib ketdi-da”, – debdi u, yana o‘zicha.

Qizaloq o‘rmonga kirishi bilanoq, bo‘ri o‘zi panalab turgan yo‘g‘on bir daraxt ortidan chiqib, qizchaga ehtirom bilan ta’zim qilibdi va:

– Xo‘sh, chiroylik Qizil Qalpoqcha, yo‘l bo‘lsin? Qayoqqa boryap-san? – deya so‘rabdi, mehribon tovushda.

– Men betob buvimni ko‘rgani ketyapman, – deya rostini aytibdi Qizil Qalpoqcha.

– Savatingda nimalar bor?

Qizil Qalpoqcha ayyor bo‘riga dorivor o‘simliklar, shirin kulcha, asal hamda bir shisha bo‘za olib ketayotganligini aytib beribdi.

Bularni eshitgan bo‘ri og‘zidagi so‘lagini zo‘rg‘a yutibdi-da: “Ha, uning buvijonisi ham ajoyib tushlik bo‘lardi-da”, – deya o‘ylanib qolibdi. Shunda u kallasiga kelgan fikrlarni chamalab ko‘rib, nihoyatda makkor bir reja tuzibdi. Va qizchaga yanada iltifotli ovozda debdi:

– Bilasanmi, Qizil Qalpoqcha, manavi qari emanning ortiga o‘tsang, ajoyib bir sayhonlik bor. U yerda o‘rmondagi eng chiroyli gullar o‘sadi. Sen o‘sha yerga borib, buvijoning uchun bir bog‘lam guldasta tergin. Axir betoblarga gul olib borsang, ular yanada tezroq sog‘ayadi-da, – debdi.

Qizil Qalpoqcha ham ayyor bo‘rining bu makriga chippa-chin ishonib, so‘qmoqdan burilibdi-yu gulzorni axtarib ketibdi. Darvoqe, u onasining “so‘qmoq yo‘ldan chalg‘imagin, begonalar bilan gaplashma, yo‘qsa adashib, xavfli botqoqqa borib qolishing mumkin”, – degan gaplarini ham mutlaqo esidan chiqarib yuboribdi... Xullas, qizaloq bo‘ri aytgan yalanglikka borib, chiroyli gullarni terishga tushib ketibdi...

Bu vaqt ichida ayyor bo‘ri esa o‘rmondagi eng yaqin yo‘ldan shundoq kesib chiqibdi-da, qizaloqning buvisi uyini topib boribdi. Qarasa, uyning eshiklari berk ekan. Bo‘ri uyning atrofini obdan aylanib ko‘ribdi, keyin bu yaqin atrofda hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, sekin uyning derazasidan ichkariga mo‘ralabdi.

Qizchaning buvisi qalin ko‘rpaga o‘ralib olib, karavotda yotgan ekan.

– Ha, chindanam, omadim keldi chog‘i, – o‘ylabdi bo‘ri xursand bo‘lib. – Shuncha kundan beri nuqul o‘rmon mevalari-yu, qo‘ziqorin tanovul qilib yuruvdim, bugun esa, dabdurustdan shunday shohona tushlik nasib etib turibdi-ya!

U maxsus bolg‘achali zulfinni urib, eshikni qattiq taqillatibdi.

– Kim u? – deya so‘rabdi, xirqiroq ovoz bilan betob kampir.

– Buvijon, bu men – nevarangiz Qizil Qalpoqchaman, – deya javob beribdi bo‘ri, ovozini xuddi qizchanikidek qilib.

– Ha, bo‘talog‘im, senmisan. Shu yerda, eshik ortida bir gultuvak bor, uning ostida esa uyning kaliti turibdi, shuni ol-da, eshikni ochib uyga kiraqol, – debdi nabirasining yo‘qlab kelganidan suyunib ketgan buvi.

Bo‘ri judayam makkor emasmi, shu gapni eshitar-eshitmas, kalit bilan eshikni ochib, bir soniyada ichkariga kiribdi. U mehmonxonaga o‘tib, shartta karavot ustiga o‘zini tashlabdi. Keyin og‘zini katta-katta ochib, hash-pash deguncha, kampirni chaynab ham o‘tirmasdan , bir hamlada yutib yuboribdi...

Shundan so‘ng bo‘ri, boshiga kampirning chiroyli to‘rlar bilan bezab to‘qilgan qalpog‘ini, ko‘zlariga esa ko‘zoynagini taqib olibdi. Keyin patli yostiqlarni, ko‘rpa-to‘shakni boshqatdan hozirlab, to‘shakka yaxshilab o‘rnashib olibdi-da, qizchani kuta boshlabdi.

Oradan chorak soat o‘tibdi. Bo‘riga bunday qulay va issiq o‘rin juda yoqib qolganidan uning uyqusi kela boshlabdi. Biroq, u uxlab qolsam,





Qizil Qalpoqchani qo‘ldan chiqaraman-ku, degan o‘y bilan, qiynalib bo‘lsa-da, uxlamaslikka tirishibdi.

– Qani, endi kelaqolsang-chi, yaramas qizcha, – deya ming‘irlabdi u o‘zicha, betoqatlanib.– Axir, yaxshi taomdan so‘ng shirinlik yeydigan payt ham keldi-ku,– deya, qo‘shib qo‘yibdi, og‘zini katta-katta ochib esnarkan...

Nihoyat, Qizil Qalpoqcha ham qo‘llarida savatcha, chiroyli guldastalarni ko‘tarib, buvisining uyiga yetib kelibdi. U uyning oldida dumalab yotgan gultuvakni, lang ochiq turgan eshiklarni ko‘rib, hayron bo‘lib qolibdi.

– Bechora buvijonim, – deya o‘ylabdi u. – Shu darajada og‘ir betob ekan-ki, hatto eshiklarni tambalashga ham majoli yetmabdi-ya!

Qizcha ichkariga kirib, oyoq uchida karavotga yaqinlashibdi. Bundoq qarasa, buvisi qizchaga g‘alatiroq ko‘rinibdi. Bundan hayron bo‘lgan Qizil Qalpoqcha undan so‘rabdi:

– Buvijon, nega ko‘zlaringiz bunchalik katta bo‘lib ketibdi?

– Ha, seni yaxshiroq ko‘rish uchun, bo‘talog‘im! – debdi qaltiroq ovoz bilan bo‘ri.

– Quloqlaringiz nimaga bunchalik uzun? – yana so‘rabdi Qizil Qalpoqcha.

– Ha, seni yanada yaxshiroq eshitish uchun, – debdi bo‘ri, kampirning qalpog‘ini qulog‘igacha bostirib kiyar ekan.



– Buvijon, hoy buvijon, nega tishlaringiz bunchalik so‘yloq va o‘tkir bo‘lib ketibdi? – yana savolga tutibdi qizaloq.

Shunda bo‘rining toqati toq bo‘lib ketibdi-da:

– Seni yeyish uchun! – deya baqiribdi. Va bir sakrab karavotdan turib, og‘zini katta ochibdi-yu, Qizil Qalpoqchani ham yamlamay yutib yuboribdi. Tag‘in hech nima ko‘rmagandek, qip-qizil tili bilan lab-lunjini yalab ham qo‘yibdi.

– Xayriyat-ey, endi qornim biroz to‘yganday bo‘ldi, – debdi bo‘ri kattakon qornini uzun tirnoqli panjalari bilan qashlarkan. Keyin, o‘zidan xursand bo‘lib, tumshug‘ini yumshoqqina patli yostiqqa bostiribdi-da, xotirjamlik bilan uyquga ketibdi.

U kampirning oromijon to‘shagida shu qadar rohatlanib uxlarkan-ki, azbaroyi maza qilganidan baland ovoz chiqarib xurrak ham ota boshlabdi. Bo‘rining xurragi shunchalik kuchli ekan-ki, uning tovushidan uyning derazalari zirillar, devorlar ham titrab ketarkan.

Agar shu atrofdan o‘rmonchi o‘tmaganida, bo‘ri shu alpozda to oqshom tushib, tun cho‘kkuncha uxlashi mumkin ekan. Biroq, bu yerdan chiqayotgan shovqinni o‘rmonchi chol eshitib qolibdi. Bu ovozdan biroz shubhaga borgan o‘rmonchi, eshikni qiya ochib, sekin ichkariga mo‘ralabdi. U o‘zining eski tanishi bo‘lgan kampirni uyg‘otib, unga, nega eshiklaringizni ichidan tambalamasdan, bemalol uxlayapsiz, deya tanbeh bermoqchi bo‘libdi. Ammo, uyga kirishi bilan uning dimog‘iga bo‘rining qo‘lansa hidi urilibdi.

O‘rmonchi bir noxushlikni sezib, karavotga yaqin borsa, u yerdan chindan ham kattakon bo‘rining boshi ko‘rinibdi. Kampirdan esa nom-u nishon yo‘q emish.

Shunda o‘rmonchi, bundan bir necha kun ilgari, dehqonlarning arzi dodiga ko‘ra, ularning tovuqlarini, o‘rdak va quyonlarini o‘g‘irlab, bolalarini qo‘rqitayotgan bir vahshiy maxluqning ortidan tushib, topa olmay qolganligini eslabdi. Va bu ishlarning hammasi mana shu yirtqich



bo‘rining qilmishi ekanligini fahmlab: “Ha, gap bu yoqda ekan-da. Ana endi kuning bitdi, yirtqich g‘alamis!” – deya uzoq o‘ylab ham o‘tirmay, miltig‘ini olibdi-da, bo‘rini shartta otib tashlabdi.

Keyin u bo‘rining qappayib turgan qornidan chiqayotgan yig‘i tovushlarini eshitib, hang-u mang bo‘lib qolibdi... Uning qornidan Qizil Qalpoqchani hamda buvisini sog‘-salomat chiqarib olgach esa o‘rmonchi o‘z ko‘zlariga ham ishonmasmish.

– Rahmat sizga, o‘rmonchi janoblari! Beadad tashakkur sizga ! – deya astoydil minnatdorlik bildiribdi qizaloqning buvisi.

Qizil Qalpoqcha ham o‘z hurmatini bildirib, bu topqir va mard o‘rmonchi amakining atrofida sakrab-sakrab, raqsga tushib ketibdi. Chunki qizaloq o‘zining bu xavfli sarguzashtlari yaxshilik bilan tugaganligidan xursand ekan-da.

Buvisi Qizil Qalpoqchani mehr bilan bag‘riga bosibdi. Ularning ikkisi ham hech qanday ziyon- zahmat yetmay, omon qolganlariga shukronalar aytishibdi. Buvisi esa xursandligidan, o‘zini avalgidan ham ko‘ra dadilroq va sog‘lomroq his eta boshlabdi. U endi sirayam kasal bo‘lmaslikka, hoziroq, Qizil Qalpoqcha keltirgan dorivor giyohlardan damlama tayyorlashga kirishishini ma’lum qilibdi.

Shundan so‘ng u Qizil Qalpoqcha keltirgan savatdan shirin kulchani, bir shisha bo‘zani olib, dasturxon tuzatibdi-da, dasturxonga jasur o‘rmonchini, nabirasini taklif qilibdi. Ular birgalikda ochiq havoda, charog‘on osmon ostida maza qilib tushlik qilibdilar.

– Ha, bu yaramas bo‘ri endi bizning so‘lim va bahavo o‘rmonimizda hech kimni va hech qachon xafa qila olmaydigan bo‘ldi, – debdi, o‘rmonchi dasturxon atrofidagi kursilardan biriga ohista o‘tirar ekan.

– Men esa, endi biror joyga borishda yo‘ldan boshqa tomonga chalg‘imaslikka, begonalar bilan gaplashmaslikka so‘z beraman, – debdi Qizil Qalpoqcha.

– Juda to‘g‘ri qilasan, bo‘talog‘im, – uni maqtabdi buvisi. – Bilasanmi, debdi u yana, – bo‘lib o‘tgan voqealar menga ham ajoyib saboq bo‘ldi. Endi men ham doim eshiklarimni ichidan mahkam tambalab o‘tiraman. Huda-behuda eshigimni taqillatganlarga ularni lang ochib qo‘yavermayman. Axir o‘ylab ko‘rgin-a, bo‘talog‘im, agar baxtimizga mana shu jasur o‘rmonchi amaking bo‘lmaganida, biz hozir qay ahvolda bo‘lardik... Eh, xudoning o‘zi saqlasin-ey... Kampir shu gaplar bilan nabirasini yana bir bor mehr bilan quchoqlabdi.

Tushlikdan so‘ng Qizil Qalpoqcha buvisini mehr bilan bag‘riga bosib yuzlaridan o‘pibdi-da, xayrlashib, uyiga qaytibdi. Kampir ham nabirasi bilan qo‘l silkib xayrlashib qolibdi. Shundan so‘ng ham ancha paytgacha daraxtlar orasidan Qizil Qalpoqchaning alvon tusli ko‘ylagi-yu, qip-qizil qalpoqchasi elas-elas ko‘zga tashlanib turibdi....



UYQUDAGI MALIKA

Olis o‘tmish zamonlarda, qadimiy qasrlardan birida qirol va qirolicha yashab o‘tgan ekan. Ularning har biri ham navqiron, go‘zal bo‘lib, bir-birlarini nihoyatda yaxshi ko‘risharkan.Ularning baxt uchun zarur hamma narsalari muhayyo ekan-u, lekin birgina armonlari – farzandsiz ekanlar. Shu boisdan ular kechasi-yu kunduzi o‘zlariga o‘g‘ilmi, qizmi bir shirin farzand ato etishini so‘rab tangriga iltijo qilarkanlar. Koshkiydi, farzandimiz tug‘ilsa-yu, qirolligimiz o‘z merosxo‘riga ega bo‘lsa, derkan ular. Er-xotin uzoq yillar orzu-umid, sabr-u qanoat bilan kutishibdi, nihoyat o‘sha baxtli kun ham kelib, ularning orzu-yu matlabi bo‘lgan farzand ham dunyoga kelibdi. U jajjigina qizaloq bo‘lib, judayam chiroyli ekan. Qizaloqning qirmizi yuzlari go‘yoki atirgulning endi ochilaman deb turgan g‘unchasiga o‘xsharkan. Shu boisdan unga Roza, ya’ni Atirgul, deb ism qo‘yishibdi.



Yangi ota-ona maqomiga erishgan qirol bilan qirolicha o‘zida yo‘q xursand ekan. Ular qizaloqning sharafiga katta ziyofat uyushtirishib, unga barcha qarindoshlarini, saroy a’yonlari-yu, to‘ralarini, xizmatchilari-yu, amaldorlarini taklif etishibdi. Shuningdek bu tantanaga o‘n ikkita sehrgar farishtalarni ham chaqirishibdi. Bu sehrgar farishtalarning har biri chaqaloqqa o‘zlarida mavjud bo‘lgan biror-bir fazilatni ato etishibdi. Masalan, ularning biri mehribonlikni ato etsa, boshqasi zukkolikni beribdi, yana biri – go‘zallikni, biri – adolatni, qaysinisi donish-

mandlikni, galdagisi – saxovatni, boshqa biri – muhabbat tuyg‘usini baxsh etibdi va hokazo. Shunday qilib, qizaloq chaqaloqligidayoq tug‘ilgan kuniga hadya sifatida farishtalardan ana shunday ko‘plab fazilatlarni olibdi.

Ziyofatdagi mehmonlar birma-bir qizchaning beshigi yoniga kelib, tilak-istaklarini bildirganlaricha, o‘z sovg‘alarini qoldiribdilar. Nihoyat, eng so‘nggi mehmon ham qizaloqqa sovg‘asini topshirib bo‘lgach, qirolicha barchani ziyofat dasturxoniga taklif etibdi. Xizmatchilar biri-biridan mazali taomlarni dasturxonga torta boshlabdilar, saroyda yoqimli kuy yangray ketibdi. Mehmonlarning hammasi taxtning yangi vorisi bo‘lmish jajji qizaloqning, qirol va qirolichaning sog‘lig‘i, baxt-saodati uchun qadah so‘zlari aytishibdi. Saroyni bir zumda shodlik va baxtiyorlik chulg‘ab olibdi.

Saroy a’yonlari endigina jajji malika Rozaning sha’niga navbatdagi tabrikni aytish uchun o‘zlarining billur jomlarini sharobga to‘ldirgan ekanlar-ki, birdaniga olatasir, shovqin bo‘lib, saroy oynalari ochilib ketibdi. Deraza tirqishlaridan saroyga judayam sovuq, etni junjiktiradigan shamol ufura boshlabdi. Shamolning zabtidan saroydagi shamdonlarga o‘rnatilgan shamlarining hammasi biryo‘la o‘chib qolibdi. Sababi ana shu sovuq shamol bilan birga derazadan o‘n uchinchi sehrgar farishta ham kirib olgan ekan...

Bu sehrgar nihoyatda darg‘azab bir ahvolda ekan: Chunki uni ziyofatga taklif etishmagan, mutlaqo unutib qoldirishgan, ekan-da! Sehrgar bundan o‘zini haqoratlangan deb hisoblabdi va hammasi uchun o‘ch olmoqchi bo‘libdi. U beshikning yoniga kelib, chaqaloqning ustiga engashibdi-da, dahshatli ovozda shunday debdi:



– Ha, jajji qirolicha, hali sen mendan tug‘ilgan kuningga sovg‘a olganing yo‘q. Ammo aytib qo‘yay, mendan oladigan sovg‘ani boshqa hech



bir sehrgardan topolmaysan, ha, ha!– debdi u vahimali qilib... Keyin so‘zida davom etibdi: – O, latofatli malika Roza, sen judayam baxtli va go‘zal bo‘lasan. Hamma birdek seni yaxshi ko‘radi, ko‘plab barno yigitlar sening qo‘lingni so‘rashga navbat kutib turadilar. Ammo, bilib qo‘y, sen o‘n besh yoshga to‘lganingda, kutilmaganda, ip yigiradigan urchuqdan nozik barmog‘ing jarohat oladi-yu, natijada sen shu zahotiyoq, til tortmay o‘lasan!..

Darg‘azab o‘n uchinchi sehrgarning bu xosiyatsiz gaplaridan so‘ng, saroyga og‘ir va noxush sukunat cho‘kibdi. Mehmonlarning hammasi o‘n uchinchi sehrgarga qarab allaqanday qo‘rquv va dahshat iskanjasida qotib qolishibdi. Yovuz sehrgar esa har qaysi mehmonga birma-bir g‘olibona qarash bilan o‘qrayib chiqibdi-da, ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

Shunda daf’atan o‘n ikkinchi sehrgar farishtaning o‘ktam ovozi yangrab qolibdi:

– O, marhamatli Qirol hazratlari, aziz va muhtarama Qirolicham, zinhor vahimaga berilmangiz! – debdi u viqor bilan. – Sizlarning dilbandingiz, jajji malika zinhor bu tarzda olamdan o‘tmagay! Faqat u yuz yillik uyquga ketadi xolos. Malikani bu uzoq yillik uyqusidan hayotini

keyinchalik u bilan bog‘laydigan bir shahzoda uyg‘otadi. Shundan so‘ng ular yana yuz yil baxtli-saodatli umr kechiradilar.



Darhaqiqat, Roza chindan ham nihoyatda sog‘lom va barkamol, xushchaqchaq qiz bo‘lib o‘sibdi. Uning hayotida birorta ham g‘ayrioddiy hodisa sodir bo‘lmapti. Shu boisdan – ko‘p o‘tmay saroy ahli qizaloqning chaqaloqligida bo‘lib o‘tgan noxushliklarni deyarli unutib yuboribdi. Ammo shunday bo‘lsa-da, malikaning onasi – mehribon qirolicha har ehtimolga qarshi hamon qizaloqni ip yigiradigan urchuq va charxlardan ehtiyot qilib yurarkan.

Oradan yana yillar o‘tibdi... Malika Roza chindan-da, mehribon va sohibjamol qiz bo‘lib ulg‘ayibdi.



U o‘zining tug‘ilgan kunida o‘n ikkita sehrgar farishta qay bir yaxshi fazilatni tuhfa etgan bo‘lsa, ularning barchasiga ega bo‘libdi. Shuningdek Roza o‘ta xushmuomala hamda ochiqko‘ngil, mehnatsevar va kamtarin qiz ekan; u o‘qishni ham, yozishni ham birdek mehr bilan o‘rganarkan, raqs tushish, qo‘shiq aytish esa jon-u dili ekan, qiz hatto klavikord asbobida kuylar chalishga ham mohir ekan, axir o‘sha zamonlarda, bu cholg‘u asbobi juda urf bo‘lgan ekan-da. Malika yana ota-onalari bilan birgalikda otda sayr qilishni yaxshi ko‘rarkan. Ba’zan esa, saroydan birrovga bo‘lsa-da, qochib chiqishga imkon topib, shu yaqin atrofdagi daraxtzor xiyobonni kezarkan.

Roza shuningdek, oftobning nuridan bahra olishni, ozod, yovvoyi tabiatning tarovatidan lazzatlanishni nihoyatda xush ko‘rarkan.

U o‘n besh yoshga to‘lishi arafasida qirolicha qasrdagi barcha ip yigiradigan charxlarni yig‘ishtirib oldiribdi. Ip yigiruvchilar bundan: “ endi biz nima ish bilan mashg‘ul bo‘lamiz?!” – deya biroz o‘ksinibdilar, biroq, noiloj qirolichaning amriga bo‘ysunib, barcha charxlarini topshiribdilar. Ammo nimagadir qirollikdagi eng keksa ip yigiruvchi kampir hammaning esidan chiqib ketibdi. Bu kayvoni kampir qasrga yaqin xiyobon yonidagi qadimiy bir minorada yashar ekan...

Roza ayni o‘n besh yoshga to‘ladigan kuni xiyobonda o‘zining suyukli ermagi bo‘lgan jajji kuchukchasini yetaklab yurgan ekan, uning ko‘zi nogahon, o‘sha qadimiy minoraga tushib qolibdi. Qiz shu paytgacha bu minoraning ichkarisiga kirmagan ekan, shu sababli uning ichida nimalar borligini ko‘rgisi kelibdi. Shunday qilib u haligi minoraga yaqinlashibdi, qarasa, eshikda zanglab ketgan bir kalit osig‘liq emish. U kalit bilan eshik qulflarini g‘ijirlatib ochibdi-da, tor pillapoyalardan minoraning eng yuqori qismiga ko‘tarilibdi. Bu yerda bir kichkinagini hujracha bo‘lib, u turli lash-lushlar, eski narsalarga liq to‘la ekan.

Hujraning o‘rtasida boshlariga ohorlangan bejirim qalpoqcha kiyib olgan bir chiroyli kampir o‘tirganmish; u o‘zicha qandaydir bir quvnoq qo‘shiqni xirgoyi qilib, charxda nihoyatda nozik qilib zig‘ir tolasini yigirayotgan ekan.

– Kuningiz xayrli bo‘lsin, – debdi Roza va saroy ahliga xos tavoze bilan kampirga ta’zim qilibdi. U pillapoyalardan chiqish paytida biroz charchab, hansirab qolgan esa-da, kampirning oldidagi g‘aroyib uskunani ko‘ribdi-yu, charchog‘i ham esidan chiqibdi: Binobarin, qiz ilgari hech ip yigiradigan charxni ko‘rmagan ekan-da. – Buvijon, mening ismim Roza, – debdi u kampirga yaqinlashib. Va yana undan so‘rabdi: – Buvijon, siz bu yerda nima qilyapsiz?

– Ip yigirayapman, bo‘talog‘im, ip yigirayapman, – debdi kampir o‘z ishidan chalg‘imagan holda kulimsirab.

– Bu nima? – savol beribdi malika, qiziquvchanlik bilan.

– Bu kalava – undan ip hosil bo‘ladi, bunisi esa, ip yigiradigan charx, – deya javob beribdi kampir.

– Mana bu-chi? – deya so‘rabdi Roza, qo‘liga allaqanday beso‘naqayroq bir asbobni olarkan.

– Bu urchuq bo‘ladi, – debdi kampir, ammo u gapini davom ettirishga ham ulgurmasidan, shu lahzada Roza qo‘lini urchuq bilan timdalab olibdi. Uning nozik barmoqlaridan bir tomchi qon sizib chiqibdi.

Roza qo‘rqib ketganidan qichqirib yuboribdi, shunda urchuq uning qo‘lidan yerga tushib ketibdi. Qiz yugurgilab minoradan tashqariga chiqibdi, shunda u o‘zining g‘alati bir tarzda uyqusi kelayotganligini payqab qolibdi. Qizcha tezroq, saroyga, o‘z xonasiga borishga oshiqibdi. “Xonamga yetib olsam bas: Hoziroq yotib uxlayman, – tavba, umrimda hech qachon bu qadar uyqum kelmagandi-ya...” – deya o‘ylabdi u.



Malika oxirgi kuchini to‘plab, saroyga, o‘z xonasidagi karavotiga yetib olibdi. U to‘shagiga bazo‘r chiqib, boshini


yostiqqa qo‘yishi bilanoq, toshday qotib uxlab qolibdi. Binobarin u ana shu paytda, chindan ham yuz yillik g‘aflat uyqusiga ketgan ekan...

Ha, dahshatli bashorat rostga aylanibdi. Qirol va qirolicha ham atrofdagilarga nihoyatda uyqulari kelayotganini aytishibdi. Shunday qilib, bu qasrdagi hamma-hamma birin- ketin uyquga ketibdi. Saroy a’yonlari, xizmatchilar bilan birga bu yerdagi jonivorlar ham uyquga keta boshlabdi. Sigirlar va otlar boshlarini quyi solibdilar, it va mushuklar kuchala bo‘lib olishibdi, qushlar esa boshchalarini qanotlari ostiga tiqishibdi, xullas, shunday qilib barcha-barchasi tosh qotib uxlab qolishibdi.

Yillar o‘tishi bilan qasrning atrofini qalin va tikanli butalar qoplabdi. Ular shu darajada tarvaqaylab o‘sibdi-ki, qasrning darvozalari-yu devorlari ham bu g‘aroyib changalzor ortida ko‘rinmay ketibdi. Ularning orasidan endi hech kim o‘ta olmas, ya’nikim, qasrga ham kira olmas ekan. Butun mamlakat bo‘ylab ushbu sirli qasr va uning ichkarisiga kirishga harakat qilib,



buning uddasidan chiqa olmagan jasur yigitlar haqida rivoyatlar tarqalibdi. Yana: "kimda-kim ushbu qasrga kirishga muvaffaq bo'lib, malikani va uning saroy a'yonlarini sehr-u jodu ta'siridan ozod qilsa, o'sha odam kimligidan qat'i nazar Malikaga uylanarmish", – degan gaplar ham rosa ovoza bo'libdi.



Shunday qilib, bu g'aflat uyqusiga botgan g'aroyib qirol qasri va uning jodulangan malikasi to'g'risidagi afsonalar xalq orasida yuz yil mobaynida og'izdan tushmabdi...

Nihoyat kunlardan bir kun jasur va o'ktam bir shahzoda o'sha tikanli butalar changalzoridan o'tib, sirli qasrga kirishga qaror qilibdi. U bir necha kun davomida xuddi shamshir tig'laridek bo'lib o'sgan tikanli butazorlar bilan olishib, qasrning devorigacha yaqinlashibdi. Navqiron shahzoda devorga yetib olgach, qasr darvozalarini ochib ichkariga kirish unchalik qiyinchilik tug'dirmabdi.

Yigit qasrning ichkarisiga kirsa, uning ko'z o'ngida g'alati bir holat namoyon bo'libdi: atrofdagi hamma-hamma narsa uyquda emish. Bundagi xizmatkorlar ham, saroy a'yonlari ham – xuddi kechagina uyquga ketgandek pishillab uxlab yotarmish. Ajablanarlisi, bundagi qushlar ham, itlar-u mushuklar ham, otxonadagi otlar-u quduqdagi suvlar ham dong qotib yotganmish; hattoki, saroyning katta mo'rkonli pechkasidagi olov ham uyquda emish. Bu yerdagi barcha narsalarni qalin chang va g'ubor qoplab olgan ekan. Muhimi, shahzoda ichkariga kirib olgach, o'tib bo'lmas tikanli butalarni boshqa uchratmabdi.

– Malikani uyg'otsam, hamma joyni bir tozalattirib, tartibga solishlarini tayinlardim, – debdi, o'zicha shahzoda. Darvoqe, u o'zi guvohi bo'lib



turgan bunday g‘aroyib va tashlandiq holatdan shu darajada ta’sirlanibdi-ki, shu tobda o‘zini hech kim eshitmayotganligini ham mutlaqo unutib qo‘yibdi.

Yigit qasrning katta darvozalari tomon yaqinlashib, ularni qattiq taqillatibdi. Albatta, unga hech kim darvozalarni ochmabdi – axir, butun saroy ahli g‘aflat uyqusida ekan-da.

Yaxshiyamki, qasrning eshiklari biroz qiya ochilib qolgan ekan, shahzoda ulardan bemalol ichkariga kiribdi.

U uyqudagi Malikaning xobxonasini qidirib, qasrni ancha aylanibdi. Sonsiz-sanoqsiz xonalarga bosh suqibdi, qanchadan-qancha dahlizlar, zallardan o‘tibdi. Shahzoda har bir xonaga bir-bir ko‘z yugurtirib chiqishga harakat qilibdi. Nihoyat u uxlab yotgan qirol va qirolichalarga duch kelibdi. Shunda yigit o‘zicha: “malikaning yotoqxonasi ham qirol va qirolichaning xobgohidan uzoq bo‘lmasa kerak”, – deya o‘ylabdi.

Chindan ham shunday bo‘lib chiqibdi, malikaning yotoqxonasi ham shu atrofda ekan. Shahzoda go‘zal o‘yma naqshlar bilan bezatilgan haybatli eshikdan ichkari kirib, baland ko‘shkda, xotirjam uxlab yotgan qizga, ya’ni malikaga ko‘zi tushibdi, yaqinroq kelib, bir necha soniya unga mahliyo bo‘lgancha tikilib qolibdi . Malika ham go‘yo hozirgina , bir necha daqiqa oldin uyquga ketgandek ekan. G‘ira-shira qorong‘ilik ichida malikaning jingalak sochlari oltindek tovlanib, uning shundoq ham chiroyli va dilbar va rangpar yuzlariga g‘aroyib bir nur ato etib turgan emish. Shu payt qizning nozik qo‘llari xuddi uyg‘onadigan vaqt yetganligini sezgandek, uyqudagi oxirgi soniyalarni sanayotgandek bir-ikki bor titrabdi.

Buni ko‘rib navqiron shahzodaning yuragi allanechuk, toqatsiz ura boshlabdi. “Bu sohibjamol men o‘z umrim bino bo‘lib uchratgan barcha hurliqolardan ham go‘zalroq ekan, – deya o‘ylabdi yigit. – Men hoziroq uni uyg‘otishim kerak!” – degan qarorga kelibdi. Shundan keyin u malikaning ustiga ohistagina engashib, uning qirmizi lablaridan nozik bo‘sa olibdi.

Roza cho‘chigandek bo‘libdi, uning qovoqlari harakatga kelibdi. Bir lahzadan keyin esa ko‘zlarini ochib, atrofga nazar tashlabdi. Qiz ro‘parasida kulimsirab turgan shahzodani ko‘rib, o‘zi ham unga shirin tabassum hadya etibdi. Keyin esa:

– Kechirasiz, bilmaysizmi, men qancha vaqt uxladim ekan? – deya so‘rabdi, istiholali bir ohangda.

– Roppa-rosa yuz yil uxladingiz, malikam, – deya javob beribdi shahzoda o‘ktamlik bilan. Va mulozamat bilan qizning karavotdan turishiga ko‘maklashish uchun qo‘llarini unga tomon cho‘zarkan, qo‘shib qo‘yibdi: – Aminmanki, malikam, buncha vaqt oralig‘ida siz rosa miriqib dam olishga ulgurgansiz.

Roza, uning bu gaplarini u qadar anglamagandek, boshini astagina avaylab, shahzodaning yelkasiga qo‘yibdi.

Oradan bir-ikki daqiqa o‘tib hovlidan ham uyg‘onayotgan odamlarning g‘ala-g‘ovur tovushlari eshitila boshlabdi. Asta-sekin xizmatkorlar, saroyning amaldor-u to‘ralari uyg‘onishibdi, jonivorlar-u qushlar ham uyg‘onishibdi. Xiyobondagi gullar va umuman barcha o‘t-o‘lanlar... o‘simliklar poyalarini adl tiklab, barglarini yozibdi, daraxtlar yana yam-yashil tusga kiribdi, atirgullar uzra yana rango-rang kapalaklar charx ura boshlabdi. Quduqdagi suv ham uyg‘onibdi, pechkadagi olov yana gurullab yona boshlabdi...



Qirol va qirolicha ham g‘aflatdan uyg‘onib, turishlari bilanoq, qizlarining yotog‘iga qarab chopishibdi. Ular qizlarining yonidagi navqiron yigitni ko‘rishib, biroz hayron bo‘lishibdi, ammo tez orada bu yigit, mehribon farishta bashoratida tilga olingan o‘sha shahzoda

ekanligini, aynan shu yigit malikani hamda butun qasr ahlini g‘aflat uyqusidan xalos etganligini anglab yetishibdi. Roza ham navqiron shahzoda ham bir-birlariga bo‘lgan muhabbatlaridan gul-gul ochilib ketishibdi, buni ko‘rgan qirol va qirolicha ularning birgalikda turmush qurishlariga rozilik bildiribdilar.

Oradan o‘tgan yuz yillik vaqt tufayli qasrdagi hamma narsani qaytadan ta’mirlash, tevarak-atrofni saranjom-sarishta qilish, tozalash lozim bo‘libdi. Ana shu ishlarning hammasi amalga oshirilib bo‘lgach, ikki sevishganlarning sharafiga dabdabali to‘y qilibdilar. Bu to‘yga qirolning barcha oila a’zolari, saroy a’yonlari, to‘ralari-yu amaldorlari, jasur bahodirlar-u, jangovar ritsarlar taklif etilibdi. To‘yga sehrgar farishtalarni ham chaqirishibdi. Bu gal ularning hech birini unutib qoldirishmabdi. Ammo, baribir, o‘n uchinchi sehrgar to‘yga kelolmabdi, aytishlaricha, u o‘zining yuz yil avvalgi bema’ni qilmishlaridan xijolat emish.

Shunday qilib, yosh kelin-kuyov uzoq va baxtli hayot kechiribdilar. Vaqti kelib, malika Roza farzand ko‘rganda, chaqaloq sharafiga tashkil etilgan bayramona ziyofatga, har ehtimolga qarshi birorta ham sehrgar farishtani taklif etishmabdi...



OPPOG‘OY

Qadim-qadim zamonda bir ulkan qasrda go‘zal va navqiron qirolicha hamda oqil va mehribon qirol yashagan ekan. Qirolicha judayam nozik va kasalmand bo‘lib, u kamdan-kam hollardagina qasrdagi oromgohidan tashqariga chiqarkan; shunda u boqqa kirib, bu yerdagi go‘zal atirgullarning ochilishini tomosha qilarkan. Saroy bog‘idagi atirgullar esa – yil davomida barq urib turarkan.

Qish kunlaridan birida qirolicha, ana shu go‘zal atirgullarning qahraton sovuqdan qanday himoya etilayotganligini bilish uchun boqqa chiqibdi. U uydan endigina boqqa qadam qo‘ygan ham ekan-ki, qo‘llaridan birini atirgulning o‘tkir tikani shilib yuborib, barmog‘idan bir necha tomchi qirmizi qon oppoq qor ustiga tushibdi. Shunda qirolicha o‘zicha xayol qilibdi: qaniydi menga ham Pahvardigor bir qizaloq farzand ato etsa-yu, uning yuzlari atirguldek chiroyli, mana shu qordek oq, lablari esa qirmizi qondek alvon bo‘lsa.



Oradan bir necha oylar o‘tib, qirolicha qiz farzand ko‘ribdi va qizaloqqa o‘z orzusidagi qor parchalari beg‘uborligini tilab, Oppog‘oy deya ism beribdi. Shundan so‘ng qirol oilasi baxtli va saodatli yashay boshlabdi.

Afsuski, bu saodat damlari uzoq cho‘zilmabdi, tez orada qirolicha kutilmaganda vafot etibdi. Qirol esa ozroq fursat o‘tar-o‘tmay, qo‘shni qirollikning nihoyatda go‘zal, biroq o‘ta sirli hayot tarzini ixtiyor etgan qirolichasiga uylanibdi. Bu qirolicha shu qadar go‘zal va malohatli ekan-ki, qirol uning ko‘rk-u chiroyiga butkul maftun-u mubtalo bo‘lib qolibdi.

Oppog‘oy ham o‘gay onasining qaramog‘ida asta-sekin kamolga yetib, tobora go‘zallashib, husn-u jamol kasb etib boraveribdi. Saroydagi hamma bu qizaloqni astoydil sevib, ardoqlasharkan. O‘gay onasi ham qizchasiga mehr qo‘yibdi, uning turli injiqliklarini va sho‘xliklarini onalarcha mehr bilan kechiraveradigan bo‘libdi. Bunga bois shu ekan-ki, o‘gay ona uchun dunyoda Oppog‘oy emas, avvalo o‘zining go‘zalligi-yu malohati muhimroq ekan, shu boisdan u mudom o‘z ko‘rk-u jozibasini saqlab qolish tashvishi bilan band ekan: qolaversa, bu sirli xonim nihoyatda kibor va izzattalab ayol ekan. Uning bir sehrli ko‘zgusi bo‘lib, u har kuni o‘sha ko‘zgusini qo‘liga olarkan-da, undan: “Hoy, ko‘zgujon, ko‘zgujon, aytchi menga, qadrdon, bu dunyoda eng go‘zal, malohatli ayol kim?” – deya so‘rarkan. Bu savolga Sehrli ko‘zgu ham har doim bir xilda:

– Bu dunyoda, eng go‘zal, malohatli ayol, shubhasiz Siz, Qirolicham! – deb javob berarkan.

Shu tariqa oradan yillar o‘tibdi. Oppog‘oy ham balog‘atga yetib, oddiy qizchadan nihoyatda ko‘rkli, malohatli bir begoyimga aylanibdi. U bir paytlar o‘z onasi orzu qilganidek, yuzlari qordek oq, lablari esa qirmizi qondek alvon qiz bo‘libdi.

Kunlardan bir kun qizning o‘gay onasi sandiqdan yana o‘sha sehrli ko‘zgusini olib, bu dunyoda eng go‘zal ayol kimligi haqida savol-javob qila boshlabdi. Shunda ko‘zgu tilga kirib:

– Ha, Qirolicham, Siz chindan-da go‘zalsiz, ammo o‘gay qizingiz Oppog‘oy sizdan-da, malohatli va latofatlidir, – deya javob beribdi.

Qirolicha buni eshitib, qahr-u g‘azabidan titrab ketibdi:

– Bu qanaqa bedodlik, shuyam gapmi, axir Oppog‘oy hali qizaloq-ku, u qanday qilib mendan ham go‘zal va malohatliroq ayol bo‘lsin?! – deya fig‘oni falakka chiqibdi. Keyin esa u sehrli ko‘zguning gaplari qanchalik rost yoki yolg‘onligini aniqlashga, va buni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishga qaror qilib, Oppog‘oyni kuzata boshlabdi.

Bu paytda malika Oppog‘oy o‘zining suyukli uy hayvonlari bilan bog‘dagi gulzorda sayr qilib yurarkan. U chindan ham juda chiroyli ekan: uning xiromon yurishlari o‘ziga yarashgan, tim qora sochlarini shamol tortqilaganda yanada malohatliroq ko‘rinar, quyosh nurlari ham malikaning tabassum qilib turgan yuzlariga, mayin kulgichlariga alohida bir yorqin joziba, nur ato etayotgandek ekan.

“Yo‘q, men kimningdir o‘zimdan ham go‘zal va chiroyli bo‘lib ketishiga, boshimdagi go‘zallik tojimni olib qo‘yishiga indamay qarab tura olmayman!” – o‘ylabdi qirolicha.

U o‘ziga tanish bir ovchini huzuriga chorlab, unga Oppog‘oyni hech kimga bildirmasdan, xufyona tarzda o‘rmonga olib borib o‘ldirishni, o‘ldirganligining isboti sifatida qizning yuragini o‘ziga keltirib berishini tayinlabdi.

Ovchi Oppog‘oyni yetaklab o‘rmonga ravona bo‘libdi. Biroq ovchi qirolicha o‘ylaganidek zolim va vahshiy kishi emas ekan. Aksincha, u juda vijdonli va oqko‘ngil inson bo‘lib, Oppog‘oyga hech bir ziyon-zahmat yetkazishni istamapti. Shuning uchun u o‘rmonning qalin bir joyiga borganida qizchaga :

– Qani Malikam, boraqol, bu yog‘iga to‘rt tomoning qibla, o‘zingga birorta boshpana toparsan, – debdi. Keyin yana: – Faqat, sendan iltimos, endi hech qachon saroyga qaytmagin, yo‘qsa o‘gay onang seni o‘ldirishi muqarrar, – deya ogohlantiribdi.



Oppog‘oy, noiloj, o‘rmonning yanada ichkarisi tomon yuribdi, ovchi qasrga qaytibdi. Ovchi Qirolichani ishontirish uchun saroy oshxonasidagi qassob do‘stidan yangi so‘yilgan cho‘chqaning yuragini so‘rab olibdi. Ushbu yurakni ko‘rgan tannoz qirolicha yana avvalgidek bu yorug‘ olamda faqat bir o‘zigina eng go‘zal va latofatli ayol bo‘lib qolganligiga ishonch hosil etib, faxr-u iftixorga g‘arq bo‘libdi.

Bu paytda bechora Oppog‘oy ko‘ngli buzilib, yum-yum yig‘lab, ming hadik va qo‘rquv ichida o‘rmonning qorong‘u so‘qmoqlaridan borar ekan. U hech qachon o‘zini hozirgidek yolg‘iz va nochor his etmagan ekan. U endi qayoqqa borishini ham, nima qilishini ham bilmas ekan.

– Bu bahaybat o‘rmonda endi men nima qilaman? – deya o‘zicha shivirlabdi u. – Qayerda yashayman, menga kim g‘amxo‘rlik qiladi?!

Biroq, shu payt uning qulog‘iga:

– O, muhtaram malika! Siz hech narsadan xavotir olmang. Yig‘lamang, ko‘zyoshlaringizni arting. Biz albatta sizga yordam beramiz! – degan ovozlar eshitilibdi. Bundan hayratga tushgan Oppog‘oy atrofga alang-jalang qaray boshlabdi. Atrofga qarasa, uning tegrasini barcha o‘rmon hayvonlari, turli-

tuman qushlar o‘rab olibdi, ularning hammasi qizning qayg‘usiga sherik bo‘lib, hamdardlik bildirib turgan emish. Ular qizni ilonizi so‘qmoqlaridan boshlab, unga qayerda o‘rmon mevalaridan tanovul qilish mumkinligini, qayerda esa musaffo buloq suvidan bahra olishi kerakligini ko‘rsatibdilar.

Nihoyat hayvonlar qizchani bir yalanglikka boshlab kelishibdi. Bu yalanglikda uncha katta bo‘lmasa-da, ko‘rinishi ajabtovur bir uycha turganmish. Oppog‘oy astagina uning derazasidan ichkariga mo‘ralasa, uyda hech kim ko‘rinmabdi.

– Siz, malika, endi bu yog‘iga hech xavotir olmang. Hammasi yaxshi bo‘ladi, – deyishibdi uni yupatib o‘rmon hayvonlari. – Uyga kirib, bemalol dam olavering, bu uyda sizni hech kim bezovta qilmaydi, uy sohiblari ham halizamon kelib qolishadi, – deyishibdi hayvonlar, mehribonlik bilan.





Malika ichkariga kirib qarasa, uyda yettita mittigina karavot, bitta kattaroq stol va uning atrofida yana yettita kursicha bor emish. Stolda yettita olma, yettita kichkina likopcha hamda yettita qoshiqcha turganmish. Ammo Oppog‘oy nihoyatda charchaganligidan bu narsalarga u qadar ahamiyat bermasdan, mitti karavotlarni birlashtirib o‘ziga o‘rin hozirlabdi-da, unga chiqib darrov uxlab qolibdi.

Kech tushib, vaqt allamahal bo‘lganda uyning sohiblari kelishibdi. Albatta ular, payqaganingizdek yetti kishidan iborat bo‘lib chiqibdi. Ularning hammasi gnomlar, ya’ni mitti odamchalar ekan. Mittivoylar o‘z joylarini ishg‘ol qilib, uxlab yotgan qizchani ko‘rib, uning go‘zalligidan hayratga tushibdilar va uni yoqtirib qolganlaridan qizning uyqusiga xalaqit bermasdan, tong otishini kutishibdi.

– Bu sohibjamol kim bo‘ldiykin? – deya o‘ylashibdi gnomlar. – Bunday chiroyli qiz, bizning xilvat o‘rmonimizga qanday qilib kelib qoldiykin? – Balki u o‘rmonda adashib qolib, uyiga ketolmagandir?.. – degan o‘ylar bilan ular tong ottirishibdi.

Tong otgach, Oppog‘oy o‘rnidan turib, gnomlar ishga ketgunlariga qadar, o‘zining achchiq qismatini mittivoylarga aytib beribdi.

Mittivoylarning qizaloqqa rahmlari kelibdi. Ular baravariga:

– Oppog‘oy, sen bizlar bilan yashab qolaver, biz seni o‘z singlimizday ardoqlaymiz, sen esa uyimizning orastaligiga qaraysan, – deyishibdi.

Oppog‘oy ham bu taklifga rozi bo‘libdi.

Bu yerda, mittivoylarning xonadonida Oppog‘oy o‘zini chindan-da baxtiyor his etibdi. U qachon dam olishni xohlasa, o‘zining qadrdon



do‘stlariga aylangan jajji hayvonchalar bilan birgalikda o‘rmonni sayr qilarkan. Oppog‘oy uy yumushlarini ham juda yoqtirib qolibdi. Har kuni gnomlar tong sahardan ishga, ya’ni tilla koniga yo‘l olarkanlar. Oppog‘oy uyni supurib-sidirarkan, ularning kiyimlarini yuvib, yamarkan, mittivoylar ishdan kelishiga ovqat tayyorlab qo‘yarkan. Gnomlar ham bundan nihoyatda xursand bo‘lishibdi. Ular ham o‘z navbatida asrandi singiljonlarini yer-u ko‘kka ishonmasdan, unga mehribonlik ko‘rsatarkanlar.

– Bizlar uyda bo‘lmagan paytimizda, uyga hech kimni kiritma! – deb tayinlabdi Oppog‘oyga eng keksa gnom. – Axir biz bo‘lmasak, seni kutilmagan xavf-u xatarlardan kim himoya qiladi? – debdi u xavotirlanib.

– Hecham xavotir olmang, – deya uni yupatibdi Oppog‘oy,– menga hech nima qilmaydi. Axir mening himoyachi do‘stlarim – o‘rmon hayvonlari doim yonimda-ku!

Shunday qilib, gnomlar Oppog‘oyning xavfsizligidan xavotir olmaydigan bo‘lishibdi. Ular zolim qirolicha ham o‘gay qiziga nisbatan bo‘lgan qasdini unutib yuborganligiga ishonishibdi. Hayot shunday qilib bir maromda davom etaveribdi.

Bu paytda saroyda katta raqs kechasi, ya’ni bal uyushtiriladigan bo‘libdi. Zolim va takabbur qirolicha ham ushbu tantanaga alohida tayyorgarlik ko‘rib, bir hafta davomida tinmasdan, hali u libosini, hali bu libosini kiyib ko‘ribdi. Yanada go‘zal va yoshroq ko‘rinay deb, sochlariga atirgul moyidan suribdi, rangim tiniqlashsin, deya echki sutiga cho‘milibdi. Bal boshlanishiga bir necha soat qolganida qirolicha shu darajada go‘zal va malohatli qiyofa kasb etibdi-ki, uni ko‘rgan saroy ahli, aqlidan adashar darajada qirolichaga mahliyo bo‘lib qolibdi. Shunda qirolicha yana o‘zining xos xonasiga berkinib olib, qadrdon sehrli ko‘zgusini qo‘liga olib, unga tikilgancha so‘rabdi:

– Hoy, ko‘zgujon, ko‘zgujon, ayt-chi menga, qadrdon, bu dunyoda eng go‘zal, malohatli ayol kim?

– Ha, albatta Siz go‘zalsiz , mening bekachim, biroq, o‘rmondagi mitti gnomlar xonadonida istiqomat qilib yurgan Oppog‘oy, sizdan-da go‘zalroq va latofatliroq! – deya javob beribdi sehrli ko‘zgu.

– O-o-oh! Yana o‘shami?! – baqirib yuboribdi g‘azabiga chiday olmagan qirolicha.– Demak, Oppog‘oy haliyam tirik ekan-da? Bundan chiqdi, yaramas ovchi meni laqillatibdi-da! Yo‘q, men bu dunyoda o‘zimdan boshqa birorta ham go‘zal va malohatli ayol bo‘lmog‘iga chiday olmayman! Hech qachon bunga yo‘l qo‘ymayman! Hech qacho-oon! – chinqiribdi u jazavaga tushib...

Tantanali raqs marosimi tugar-tugamas, qirolicha bilagiga bir savat ilib, unga bir necha chiroyli qirmizi olmalardan solibdi, olmalardan birini avvaldan tayyorlab qo‘yilgan o‘ta kuchli zaharga botirib ham olibdi. O‘zi esa kambag‘al va yupun bir kampir qiyofasiga kirib, o‘rmonga, Oppog‘oyni qidirib ketibdi.



U o‘rmonda uzoq tentirab yuribdi, nihoyat uncha katta bo‘lmagan bir uychaga duch kelibdi.

Bu paytda Oppog‘oy uyning hovlisini supurib turgan ekan. U qarib, munkillab qolgani holda bilagiga tol xivchinlaridan to‘qilgan savat ko‘tarib olgan kampirni ko‘riboq, unga tomon peshvoz chiqibdi. Kampir o‘rmon so‘qmog‘idan harsillab qadam bosarkan, Oppog‘oy uning yoniga kelibdi.

– Bugun kun judayam isib ketdi... Buvijon, keling ozroq shu yerda o‘tirib dam oling. Men hozir sizga muzdekkina suv olib chiqib beraman... – debdi g‘amxo‘rlik bilan Oppog‘oy.

Ha, o‘gay ona, o‘zining munkillagan, g‘arib bir kampir ekanligiga qizini chindan ham ishontiribdi. U gap orasida, beli og‘rib qolganligini, uyigacha hali olis yo‘l bosishi kerakligini aytibdi. “Qaramog‘imdagi bitta-yu bitta echkim ham yetilmagan bedapoyada o‘tlab, xomlab qolibdi, endi uniyam davolatishim kerak, – debdi yana u. – Eh-ha, hali u ish, hali bu tashvish, bular bari meni xarob qildi, qo‘zichog‘im...” – deya ayyor kampir uzoq javrabdi. Oppog‘oy esa unga rahmi kelib, hasratiga sherik bo‘libdi.




Kampir Oppog‘oy keltirgan suvni ichib, biror daqiqa uning yonida dam olibdi-da, ketar chog‘ida savatidagi eng chiroyli olmani qizga tutqazarkan, shunday debdi:

– Sen nafaqat chiroyli va malohatli, balki ayni paytda judayam mehribon qiz ekansan. – Keyin minnatdor ohangda davom etibdi: – Afsuski, ko‘rsatgan iltifoting, mehring uchun tuhfa qiladigan hech vaqoyim yo‘q, lekin, hech bo‘lmasa, mana shu olmani mendan rahmat o‘rnida qabul etsang! Qiz olmani olgach, kampir u bilan xayr-xo‘shlashib, ortiga ham qaramay, o‘rmon ichiga g‘oyib bo‘libdi.

Oppog‘oy bu g‘aroyib olmani qo‘liga olib, uning qirmizi rangiga zavq bilan tikilibdi va uni shu lahzadayoq totib ko‘rmoqchi bo‘libdi. Biroq, u olmani tishlashi bilanoq, o‘z-o‘zidan behush bo‘lib yiqilibdi.



Ishdan qaytib kelgan gnomlar uyga kirishsa, ichkarida hech kim yo‘q emish. Uy ham yig‘ishtirilmagan. Oppog‘oy esa ostona oldida behush bo‘lib yotgan emish. Mittivoylar zo‘r berib, qizni hushiga keltirishmoqchi bo‘lishibdi, biroq ularning harakatlari zoye ketibdi. Qiz ko‘zlarini ochmabdi, go‘yo mangu uyquga ketgandek yotaveribdi. Gnomlar bundan qattiq qayg‘uga tushibdilar. Ular tuni bilan to tongga qadar yig‘lab chiqishibdi, nihoyat ertasi kuni choshgohda o‘zlarining suyukli singillari uchun billur shishadan tobut yasab, uni Oppog‘oy sayr qilib yurishni juda



yaxshi ko‘radigan tepalikdagi bir baland daraxt ostiga joylashtirishga qaror qilibdilar.

Mehribon mittivoylar Oppog‘oy yotgan billur tobut oldida o‘ziga xos qorovullik ham tashkil etishibdi: har kuni ulardan biri billur tobutga soqchilik qiladigan bo‘libdi.

Makkor malika esa, o‘sha kuniyoq, yugurib borib, o‘z xonasidagi sehrli ko‘zgusini yana so‘roqqa tutibdi.

– Hoy, ko‘zgujon, ko‘zgujon, ayt-chi menga, qadrdon, bu dunyoda eng go‘zal, malohatli ayol kim? – so‘rabdi u yana umidvorlik bilan.

– Sohibjamol Oppog‘oy, o‘lim uyqusiga ketgandan buyon, yana bu olamdagi yagona go‘zal Siz o‘zingizsiz, qirolicham! – debdi sehrli ko‘zgu. Bu xabardan takabbur qirolicha o‘zida yo‘q xursand bo‘libdi.

Oppog‘oyning sadoqatli akalari – mitti gnomlar esa suyukli singiljonlari uchun aza ochishib, yig‘i-sig‘i qilishibdi. Ammo malika shu yotishda sirayam vafot etganga o‘xshamas emish: uning yuzini qirmizi rang tark etmagan, aqiqdek lablarida esa nim tabassum qotib qolgan ekan.

– Balki, Oppog‘oy shunchaki, uyquga ketgandir? Balki u vaqti kelib bir kuni uyg‘onar? – degan ezgu o‘y bilan mittivoylar, qizning billur tobuti qoshidan bir qadam ham jilishmabdi.

Kunlardan bir kuni, ovga chiqib, o‘rmonda adashib qolgan bir shahzoda shu yaqin oradan o‘tib qolibdi. U uzoqdan daraxt ostidagi g‘aroyib billur tobutni va unda yotgan sohibjamol Oppog‘oyni ko‘ribdi. Tobut oftob shu’lasida ajabtovur tovlanib turgan emish. Shahzoda Oppog‘oyni ko‘rib, bir qarashdayoq sevib qolibdi. U nimagadir shu lahzadayoq qizni uyg‘otishi lozimligini his etibdi. Yigit billur tobutning qopqog‘ini ochib, Oppog‘oy-

ning boshini ohista ko‘taribdi. Shunda qizning og‘zidan u tishlab ko‘rgan zaharli olma bo‘lagi tushib ketibdi. Qiz sekin ko‘zlarini ochibdi.

Buni ko‘rgan mitti gnomlarning boshi osmonga yetibdi. Ular xursandchilikdan tuni bilan raqsga tushib, qo‘shiq aytib chiqishibdi. Navqiron shahzoda esa fursatni boy bermay, Oppog‘oyning qo‘lini so‘rabdi. Mittivoylar bu o‘ktam shahzodaga o‘z singillarining turmushga chiqishiga rozilik beribdilar.

Ko‘p o‘tmay shahzodaning qasrida dabdabali to‘y bo‘libdi. Bu to‘yda Oppog‘oyni o‘limdan saqlab qolgan mehribon ovchi ham, mitti gnomlar ham, malikaning do‘stlari bo‘lmish – o‘rmondagi barcha jonivorlar-u qushlar ham aziz mehmon bo‘lishibdi. Saroy a’yonlari uchun ham hovlida to‘kin dasturxon yozilibdi. Ular ham to tongga qadar ikki yosh kelin-kuyovni sharaflab, tilak-istaklar bildirishibdi. Bu to‘yga faqat takabbur va izzattalab, toshbag‘ir qirolichagina kelmapti: chunki u Oppog‘oyning go‘zalligini ko‘rib – alamidan kuyib adoyi tamom bo‘libdi; hasadidan judayam xunuklashib ketibdi, natijada hech kimning ko‘ziga ko‘rinolmasdan o‘z uyiga qamalib olib u yerdan hecham chiqmaydigan bo‘libdi. Shu-shu bu makkor, kalondimog‘, tannoz qirolichani hech kim qaytib ko‘rmabdi...



PINOKKIO

Qadim o‘tgan zamonda bir shaharda Jepetto degan keksa duradgor yashab o‘tgan ekan. U bir umr o‘zi suygan kasb bilan, ya’ni yog‘ochdan turli- tuman, xoh katta, xoh kichik bo‘lsin uy jihozlarini, karavot, g‘aladon va shkaflarni yasash bilan shug‘ullanarkan.

Asosiy ishidan dam olayotganida esa har xil yog‘och g‘o‘lalardan bolalarbop ajoyib o‘yinchoqlar yasarkan. Jepettoning ustaxonasida o‘yinchoqlar shu qadar ko‘p ekan-ki, ularning sanog‘ini hech kim bilmas ekan. Ammo ushbu o‘yinchoqlarni sovg‘a qilay desa, Jepettoning farzandi yo‘q ekan. Shundan bu keksa duradgor hamisha o‘zini yolg‘iz va g‘arib his qilarkan.

Bir kuni Jepetto xushbo‘y hidli bir jo‘ka daraxti g‘o‘lasini olibdi-da, undan xuddi rosmana bolakay bo‘yiga teng qilib, masxaraboz qiyofasidagi qo‘g‘irchoq yasamoqchi bo‘libdi. Bu fikridan o‘zi ham shodlanib, birpasda haligi g‘o‘lani yo‘nib, masxaraboz qo‘g‘irchoqni tayyorlabdi va unga Pinokkio degan ism qo‘yibdi. Duradgor Pinokkio uchun hatto turli rangli matolardan libos, chiroyli shokilali qalpoqcha ham tikibdi. Jepetto o‘z ijodining mahsuli bo‘lgan qo‘g‘irchoqni alohida faxr-iftixor bilan bag‘riga bosibdi, keyin





uni tizzasiga olib, xuddi mehribon ota kabi quchoqlabdi-da, uning quloqchasiga ohista shivirlabdi:

– Oh, azizim Pinokkio, koshki senga jon bitsa-yu, yolg‘izlik azoblaridan iborat bu hayotimda menga hamdam bo‘lsang...

Ittifoqo, o‘sha payt, qariya Jepettoning derazasi yonidan Moviy libosli sehrgar farishta o‘tib borayotgan ekan. U duradgorning anduh to‘la hasratlarini eshitib qolibdi: “Ha, bu duradgor otaxon shuncha yillik halol mehnati va armonli yolg‘izligi uchun mukofotga loyiq odam”, deb o‘ylabdi, mehribon farishta. Shunda u Pinokkioning yog‘och yurakchasiga hayot bag‘ishlabdi. Pinokkioga bir lahzada jon kirib, u otasini ko‘ribdi, buning ustiga uni judayam yoqtirib qolibdi.



Jepetto ham nihoyat farzandli, tag‘in o‘g‘il farzandli bo‘lganidan suyunib, boshi ko‘kka yetgudek bo‘libdi; binobarin u hali kichkina bolakaylar qanchalik shum, to‘polonchi bo‘lishlarini, har xil sho‘xliklar qilishi mumkinligini bilmas ekan-da. Pinokkio chindan-da o‘ta sho‘x, yerga ursa, ko‘kka sapchiydigan bola bo‘libdi. Keksa duradgor doim: mening o‘g‘lim sho‘xlikdan boshqa hech narsa haqida o‘ylamaydi, der ekan. Biroq eng yomoni, Pinokkio birorbir qilg‘ilikni qilishga qilar ekan-u, barcha aybni hech ikkilanmasdan birovlarning ustiga ag‘darib, suvdan quruq chiqa-verarkan.

Pinokkio yolg‘on gapiradigan bo‘lsa, uning yog‘och burunchasi yanada uzayib ketarkan, shundan keksa Jepetto masxaraboz o‘g‘ilchasi uni aldayotganligini bilib olarkan.

Jepetto o‘g‘lining bu shumliklaridan juda bezor bo‘libdi, nihoyat u: mening o‘g‘lim ham shahardagi barcha bolalar qatori maktabga borishi va bilim olishi kerak, degan qarorga kelibdi. Keyin Pinokkioga maktab uchun kitob-daftarlar sotib olib beribdi va unga maktabga borganida odobli va tirishqoq bola bo‘lishi kerakligini tayinlabdi.

Ertasi kuniyoq Pinokkio maktabga otlanibdi. Maktabga ketaturib u yo‘lda sayyor qo‘g‘irchoq teatrini ko‘rib qolibdi. Bu teatrda xuddi Pinokkioga o‘xshagan yog‘och qo‘g‘irchoqlar tomosha ko‘rsatishar ekan. Bizning mitti masxarabozimiz Pinokkio ham ular bilan yaqinroq tanishib, do‘stlashishni istab qolibdi. Shu niyatda u sahnaga yugurib chiqibdi-da, bu yerdagi qo‘g‘irchoqlarga qarab:

– Hammangizga salom, men Pinokkioman, sizlarning qarindoshingiz bo‘laman! – deya baqiribdi.

Shu payt sahna oldida kutilmaganda teatrning serjahl direktori paydo bo‘libdi. U shartta Pinokkioni tutib olibdi-da, bir qafasga qamab qo‘yibdi. “Buni qara-ya, gapiradigan qo‘g‘irchoq! – deya o‘ylabdi u. – Agar bu tarasha tirmizakni o‘z teatrimga oladigan bo‘lsam, u menga rosa foyda keltirardi-da!”

Shundan so‘ng teatr direktori Pinokkioga:

– Endi, bolakay, istaysanmi, istamaysanmi, mening teatrimdagi eng yaxshi aktyorim bo‘lasan! – debdi do‘q qilayotganday.

Pinokkio o‘ylanib qolibdi, chunki u chindan ham aktyor bo‘lib, sahnalarga chiqib odamlarning olqishiga, mehriga sazovor bo‘lishni istarkan, biroq, buning uchun yog‘och qafasda qamalib o‘tirishini hecham xohlamas ekan.

– Iltimos, meni bu yerdan chiqaring, men maktabga, o‘qishga borishim kerak! – deb yalinibdi u direktorga.

– Bekorlarni aytibsan, – debdi vajohatli direktor, – buning uchun sen avval mening teatrimda ishlab, ko‘p pul topib berishing kerak.

Shunday qilib bizning masxarabozimiz Pinokkio juda nochor ahvolga tushib qolibdi. Yaxshiyamki, mehribon moviy libosli sehrgar farishta yana unga yordam beribdi. U o‘zining sehrli tayoqchasi bilan yog‘och qafasni bir lahzada buzib tashlabdi, natijada Pinokkio ozodlikka chiqibdi.

– Endi men, albatta odobli bola bo‘laman, otamning aytgan gaplaridan sira chiqmayman, – deya so‘z beribdi Pinokkio, o‘z qilmishlaridan afsuslanib. Keyin u moviy libosli sehrgar farishtaning qo‘lidan tutib, uyga, otasi Jepettoning huzuriga yo‘l olibdi.

Ertasi kuni qariya Jepettoning o‘zi Pinokkioni maktabga yetaklab boribdi. Lekin masxaraboz bolakay sirayam o‘qishni xushlamabdi. Sababi u shuncha harakat qilsa-da, harflarning nomlarini esda saqlab qololmas ekan, ingichka qalam ham uning yog‘och barmoqlaridan sirg‘alib tushib ketaveribdi. Bu ham yetmaganday, Pinokkio juda qattiqqo‘l va qahrli o‘qituvchining qo‘liga tushib qolibdi: u o‘quvchilariga shunaqayam dag‘dag‘a bilan baqirarkan-ki, buni ko‘rib Pinokkioning naq o‘takasi yorilay debdi. Tag‘in uning qo‘lida tol novdasidan yasalgan uzun xivchin ham bo‘lib, uni mudom o‘quvchilarning yelkasi uzra silkitaverarmish. Sal bo‘lmasa, u Pinokkioni quloqsizligi uchun savalashiga ham bir baxya qolibdi!



Shundan so‘ng Pinokkio maktabdan o‘rmon tomonga qochib qolibdi. U o‘rmonda bir tulki hamda mushukni uchratibdi. Pinokkioning yangi do‘stlari xo‘p alomat chiqibdi, avvalo – mushukning bir ko‘zi ko‘r, tulkining esa bir oyog‘i cho‘loq ekan. Bu atrofda ular o‘zlarining firibgarligi va aldoqchiligi bilan hammaga otning qashqasidek tanish ekan-u, lekin bizning Pinokkio bulardan bexabar ekan. Shu sababli Pinokkio bu yangi tanishlariga o‘zining maktabdan qochganligi haqida aytib beribdi.

– Bilasanmi, azizim Pinokkio, sen bizga mana shu alifbe kitobingni 3 tilla dukatga (dukat – italyan pul birligi) sotsang, ajoyib ish bo‘lardi-da! – deya taklif qilibdi ayyor tulki. Pinokkio ham uning gapiga laqqa tushibdi. “Ajoyib savdo, – o‘ylabdi Pinokkio, – buni Jepetto otam eshitsalar, rosa xursand bo‘ladi-da!”

Pinokkio uch tilla dukatni qo‘liga olgach, makkor mushuk uni avray ketibdi:

– Azizim Pinokkio, huv anavi kattakon jo‘ka daraxtini ko‘ryapsanmi?



U o‘rmonimizdagi eng sehrli daraxt. Uning sirini aytib beraymi senga?

Bu daraxtning siri shundaki, agar sen qo‘lingdagi tilla dukatlarni uning tagiga ko‘mib qo‘ysang, ertagacha ularning miqdori bir necha barobar oshib qoladi, va sen birpasda boyib ketasan... Faqat sen bu haqda boshqa hech kimga aytmasliging kerak.

Sodda Pinokkio ushbu yolg‘ongayam chippa-chin ishonibdi. U tilla tangalarini daraxt ostiga ko‘mib, uyiga jo‘nabdi. Shundan keyin Pinokkioga o‘zining bu pullarini ko‘rish nasib etmabdi. Sababi – o‘sha kuni kech tushishi bilanoq, ayyor tulki va mushuk bu yerga kelib ularni daraxt ostidan kovlab olib, qayoqqadir qochib ketishibdi-da.

Ertasi kuni Pinokkio, otasi Jepettoga va’da qilgan tilla dukatlarini kavlab olish uchun yana o‘rmonga qaytibdi, lekin ularni ko‘milgan yeridan topolmabdi. Faqat shundagina, sodda masxaraboz, yangi tanishlari o‘zini boplab laqillatib ketishganini payqabdi. Va bundan nihoyatda g‘azablanibdi, o‘g‘rilarni topib ta’zirini bermoqchi bo‘libdi-yu, biroq, endi ularni topishning iloji yo‘q ekan. Chunki bu makkor tulki bilan mushuk xuddi qumga tushgan ignadek benom-u nishon ketishibdi...

Pinokkio uyiga alifbe kitobisiz, buning ustiga pullaridan ham ayrilib, qaytib borishga jur’at qila olmabdi. U bo‘lib o‘tgan voqealardan juda xafa bo‘lib, to kech tushguncha shahar ko‘chalarida yolg‘iz sandiroqlabdi. U xiyobondagi bir o‘rindiqqa o‘tirib endi uxlamoqchi bo‘lib turgan ekan-ki, kutilmaganda, o‘zi bilan bir maktabda o‘qiydigan do‘stini uchratib qolibdi.


Bu do‘sti O‘yinchoqlar mamlakatiga olib borib qo‘yadigan aravani kutib turgan ekan.

– O‘yinchoqlar mamlakati, qanaqa joy o‘zi? – deya so‘rabdi qiziqsinib Pinokkio.

– Bu shunaqa ajoyib joyki, u yerga faqat bolalargina kiritiladi. U yerda hech kim seni o‘qishga majbur qilmaydi, – deya izoh beribdi o‘rtog‘i.

– Bu mamlakatda ertalabdan to kechgacha istagan o‘yiningni maza qilib o‘ynayverasan !

Tun yarmidan oqqanda chindan ham xiyobonga bir arava kelib to‘xtabdi. Unga to‘rtta qari-qirchang‘i, yag‘ir eshak qo‘shilgan ekan. Pinokkio aravaga qo‘shilgan eshaklarga tikilibroq qarasa, ular yig‘layotgan emish. Pinokkio ulardan birining yoniga borib, endi boshini silamoqchi bo‘lgan ekan, ko‘rinishi nihoyatda vajohatli bo‘lgan aravakash: “Hoy, imillamalaring, tezroq ketishimiz kerak, chiq, aravaga, chiqaqol!” deya baqirib qolibdi. Bularning barisiga hayron bo‘lib qolgan Pinokkio ham beixtiyor aravaga chiqib o‘tirib olibdi. Aravada undan boshqa ham bir necha bola bo‘lib, ularning aksariyati bir umr O‘yinchoqlar mamlakatida qolishga tayyor ekanlar. Pinokkio bu bolalarga sinchiklab qarab bir narsani payqabdi, ularning ayrimlari oddiy bolalarga o‘xshasalar-da, ayrimlarining quloqlari xuddi eshaknikidek uzun emish.



Ertalab, arava quvnoq bir shaharchaga kelib to‘xtabdi. U yerda maktabga borishni xohlamaydigan birtalay bolalar o‘ynashayotgan ekan. Ularning deyarli barchasining quloqlari eshaknikiga o‘xshash bo‘lib, o‘zlari ham asta-sekin eshak



qiyofasiga kirib borayotgan ekanlar. Ammo ular bu yerdagi o‘yinlariga judayam berilib ketganlaridan o‘z tashqi ko‘rinishlaridagi bunday o‘zgarishni ilg‘amayotgan emish. Pinokkio daf’atan o‘z quloqlari ham xuddi eshakning qulog‘iga aylana boshlaganligini payqab qolibdi va bundan dahshatga tushibdi.

–Yo‘q, yo‘q! Men sirayam eshakka aylanishni istamayman! Quloqlarim uzun va junli bo‘lishining ham keragi yo‘q! – deya dod solibdi u bor ovozi bilan .

– Otajonim, qayerdasiz, qayerdasiz mehribonginam! Men endi doim yaxshi bola bo‘laman, sizning hamma gaplaringizga quloq solaman! – debdi, u o‘zicha yig‘lamsirab.

Shunday qilib u bir amallab, haligi bexosiyat aravadan sakrab tushib qolibdi. Aravadan tushibdi-yu, oldi-orqasiga qaramay, uyi tomonga chopib ketibdi.

Pinokkio o‘zining shahriga faqat bir kun o‘tib, tong saharda kirib kelibdi. U uylari oldiga kelib qarasa, uy eshiklari tappa-taq yopilgan, eshik kesakisiga esa bir xat qistirib qo‘yilgan emish. Pinokkio o‘qishni bilmaganligi sababli, Jepetto ota bu xatga nimalar deb yozganligini bila olmabdi. Masxaraboz bolakay, uy eshiklarini qanchalik zarb bilan taqillatmasin, unga hech kim eshik ochmabdi. Keyin u uyning atrofini aylanib, yerto‘laning tuynugi ochiq ekanligini ko‘ribdi va shu tuynuk orqali ichkariga kiribdi. Ammo ichkaridan ham otasini topolmabdi.

Pinokkio otasi haqida qo‘shnilardan so‘rab, bilay desa, ular ham, keksa duradgor qayerga ketganligini aytib bera olishmabdi. Pinokkio shundan so‘ng yana uyiga qaytibdi, u oshxonadagi stol ustiga chiqib o‘tiribdi-da, birdaniga xo‘rligi kelib yig‘lab yuboribdi.

Shu payt kutilmaganda uning oldida, o‘sha tanish moviy libosli sehrgar farishta paydo bo‘libdi. Farishta tanbehli ovoz bilan Pinokkioga: “Ana, ko‘rdingmi, Pinokkio, – debdi, – Agar sen maktabdan qochib ketmaganingda edi, Jepettoning eshikda qoldirgan xatini o‘qiy olgan bo‘larding”.

– Ha, – debdi Pinokkio, piqillab yig‘larkan, – agar men maktabga borganimda, yolg‘on gapirmaganimda, quloqlarim ham eshaknikiga o‘xshab qolmagan bo‘lardi, otajonim ham hozir uyimizda, mening yonimda bo‘lardi. Bularning hammasiga men, mening o‘zim sababchiman!

Ha, bu rost gap edi: darhaqiqat, Jepetto o‘zining quloqsiz yog‘och o‘g‘ilchasi – Pinokkioni qidirib olis safarga jo‘nab ketgan edi.

– Otang, sen uchun shunchalik xavotirlandi-ki, oqibatda seni izlab, qayiqqa o‘tirdi-yu, dengizga tomon suzib ketdi, – debdi, moviy libosli farishta Pinokkioga. Keyin yana: – Otajoning seni shu qadar yaxshi ko‘radi-ki, seni yana bir bor ko‘rish, bag‘riga bosish uchun hatto o‘z jonidan ham kechishga tayyor u, – deya qo‘shib qo‘yibdi.

– Agar otajonim, chindan ham meni qidirib, dengizga otlangan bo‘lsalar, unda men ham ularning ortidan suzib borishim kerak, – debdi Pinokkio. – Men axir yog‘ochdan yasalganman, shuning uchun suvda cho‘kmayman. Agar otam biror xavf-xatarga duch kelsa, men unga yordam berishim kerak.



U shunday deya moviy libosli farishta bilan xayrlashibdi-da, qanchalar horib-charchaganiga qaramasdan, shu atrofdagi dengiz sohiliga tomon yo‘l olibdi.

– Pinokkio qumloq sohilga borib: “Otamning qayig‘ini uchratib qolarmikinman”, – degan o‘y bilan tevarak-atrofga uzoq tikilibdi.

Dengiz nihoyatda ulkan va sokin ekan.Unda ko‘plab ulkan kemalar suzib yurarmish, ammo hech qayerda duradgor Jepettoning ixcham qayiqchasi ko‘rinmasmish.

– Shunda Pinokkio “otam baribir shu dengiz ichida-ku, men uni topishim shart”, – degan o‘yda o‘zini dengizga otibdi. Mavjlangan to‘lqinlar uni bir zumda sohildan olis-olislarga, dengiz qo‘yniga olib ketibdi.

Pinokkio dengizning muzdek suvida judayam sovqotibdi, u o‘zining yon atrofida suzib yurgan bahaybat baliqlarni, toshbaqalarni ko‘rib dahshatga tushibdi. Ammo ular bolakayga hech qanday yomonlikni ravo ko‘rishmabdi, aksincha, unga dengizdagi eng yovuz maxluq – bahaybat kitdan ehtiyot bo‘lishini uqtirishib, tezroq sohilga qaytishi lozimligini maslahat berishibdi.



Biroq, sohilga qaytish uchun endi kech ekan. Chunki, bu paytda Pinokkio allaqachon dengizning qoq o‘rtasida bo‘lib, bahaybat kit uni ko‘rib, bolakayga tomon suzib kela boshlabdi.



Pinokkio yonginasiga kelib qolgan kitning ochilgan bahaybat tishli jag‘larini ko‘rib, qo‘rquvdan dodlab yuboribdi va undan uzoqroq qochishga harakat qilibdi, ammo buning uddasidan chiqa bilmabdi. Kit og‘zini bir ochib, qayta yumgan ekan – Pinokkio ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. Sababi – u o‘sha lahzadayoq bahaybat kit qornining eng tubiga borib tushgan ekan.

Bolakay kit qornida bu yuho maxluq o‘zidan ilgariroq yutib yuborgan bir qancha baliqlarni, qisqichbaqa va toshbaqalarni uchratibdi... va kutilmaganda o‘z otasi Jepettoni ham ko‘rib qolibdi. Jepettoning usti boshi shalabbo, o‘zi esa dahshatdan dag‘-dag‘ titrayotgan ekan.

– Otajon, otajonim, tirikmisiz! – deya qichqiribdi Pinokkio.

– Bolam, o‘g‘ilginam Pinokkio! – debdi qariya va shodligidan beixtiyor yig‘lab yuboribdi. Ular endi bir-birlarini topganliklaridan keyin, birgalashib bu yerdan qutulishga bo‘lgan ishonchlari ortibdi.

Ular bir-birlarining diydorlariga obdan to‘yib olishgach, Pinokkio otasining yoniga kelib o‘tiribdi. Endi ota-bola bu yuho maxluqning qornidan qanday qilib qutulish va yana o‘z uylariga eson-omon qaytish to‘g‘risida o‘ylay boshlabdilar.

Nihoyat Pinokkioning miyasiga – kit qornida olov yoqish kerak, degan fikr kelibdi. ”Yo‘q, – debdi u tag‘in, – shunchaki olov emas, biz bu yerda kattagina yong‘in uyushtirishimiz kerak.Toki, katta olovdan kit yo‘talib, aksa ursin va shunda uning ichiga yutilgan hamma narsalar, shu jumladan, bizlar ham uning burnidan dengizga otilib chiqib ketaylik. Bu yerdan

ozodlikka chiqib olgach, uyimizga qanday yetib olishni – mening g‘o‘la boshimga ishonavering, – debdi u mag‘rur ohangda.

Haqiqatan ham, Pinokkioning bu rejasi juda alomat edi. Biroq uni amalga oshirishning uddasidan chiqisharmikan, Pinokkioning o‘zi bunga unchalik ishonmasa-da, baribir bir unnab ko‘rishga qaror qilibdi. Shunday qilib ular kitning qornida sochilib yotgan har xil payraxa va taxta bo‘laklarini bir joyga to‘plashibdi. Jepetto cho‘ntagidan gugurt olib ularni yoqibdi. Avvaliga bahaybat baliq qornidagi bu nam o‘tinlar darrov yona qolmapti, biroq, oradan bir-ikki daqiqa o‘tgach, alanga shunaqangi gurillabdi-ki, bu ulkan gulxandan kitning qorni naq qozonga aylanib ketibdi.

Pinokkio otasi Jepettoni kitning tomog‘iga yaqinroq yetaklab boribdi-da, bu ulkan maxluqning aksa urishini poylay boshlabdi. Oradan soniyalar, keyin esa daqiqalar o‘ta boribdi, ammo kitning na yo‘talidan va na aksa urishidan darak bo‘lmapti. Pinokkioning kutaverib hafsalasi endigina pir bo‘lgan ekan-ki... kutilmaganda kit bahaybat jag‘larini baralla ochganicha, qattiq aksa urib yuboribdi. Ota-bola, ikki tutqin bu fursatdan foydalanib, burqsigan tutun o‘ramlari orasidan o‘zlarini dengizga otishibdi. Ochiq dengizga chiqishgach, Jepetto Pinokkioning qo‘llaridan mahkam ushlab olibdi. Shunday qilib ular bir-birlariga ko‘maklashgan holda, eson-omon dengiz sohiliga suzib chiqishibdi.



Ota-bola bir amallab o‘z uylariga yetib kelganlarida, bunda ularni moviy libosli sehrgar farishta kutib turgan ekan. U avval Jepetto keyin jasur masxarabozimiz Pinokkio bilan salomlashibdi. Pinokkio farishtaga endi doim maktabga borishga, hech qachon darslardan qochmaslikka va yolg‘on so‘zlamaslikka, aytgan so‘zlariga esa hamisha amal qilishga chin dildan va’da beribdi.

Uning bu gaplaridan xursand bo‘lib ketgan sehrgar farishta Pinokkioni haqiqiy bolakayga aylantiribdi. Endi Pinokkioning yuzlari, tanasi, qosh-u ko‘zlari, qo‘l-oyoqlari, xullas, hamma-hamma joyi haqiqiy tirik bolalarniki kabi bo‘libdi. Eng muhimi – yaqindagina hissiz yog‘och yurakni ko‘tarib yurgan Pinokkio ham endi mehr-muhabbatga to‘la, haqiqiy inson yuragiga ega bo‘libdi.

IRKIT O‘RDAKCHA

Qadim o‘tgan zamonda bir xonadonga tegishli xo‘jalikda ona o‘rdak yashagan ekan. Kunlardan bir kuni u kurk bo‘libdi va qariyb bir oyga yaqin jo‘ja ochish maqsadida tuxum bosib yotibdi. U yaqin kunlarda ochib chiqadigan jo‘jalarim sog‘lom va baquvvat bo‘lsin, degan niyatda tuxumlarini mehr bilan o‘zining momiq patlari ostida isitib yotarkan.

Ammo ona o‘rdak ostidagi tuxumlarning hammasi ham bir xil emas ekan.Ulardan biri nihoyatda beso‘naqay, buning ustiga po‘stlog‘ida chipor-chipor dog‘lari ham bor emish. Ona o‘rdak, bu tuxum qayerdan kelib qolganligini o‘zi hech eslay olmas ekan, biroq, “modomiki, u mening uyamda ekanmi, demak, buyam o‘zimning tuxumim, undan ham jo‘ja ochishim kerak”, – deb o‘ylabdi.


Va nihoyat bir kuni, tuxumlar birin-ketin yorilib, ulardan biri-biridan jajji, sarg‘imtil jo‘jalar ochib chiqa boshlabdi. Tuxumlarning






deyarli hammasidan jo‘ja chiqib bo‘libdi. Ammo haligi beso‘-naqay tuxum hech yorilay demasmish. Ona o‘rdak: “Ha mayli, baribir, uniyam ochishim kerak, ehtimol bu kenja tuxumimdan ochadigan jo‘jam bolalarimning ichida eng chiroylisi bo‘lar”, – degan o‘y bilan uni avaylabgina bosib yotishda davom etibdi. Oradan bir-ikki kun o‘tib, ushbu g‘aroyib tuxumdan nihoyatda beso‘naqay, xunuk va irkit, patlari hurpaygan, hammasidan ham hayratlanarlisi – kulrang bir jo‘ja ochib chiqqanini ko‘rganda ona o‘rdak hang-u mang bo‘lib qolibdi! Bu jo‘ja judayam qo‘pol, lapanglab yurishlariyam juda kulgili ekan. Qolaversa, u o‘zining opa-akalariga o‘xshab “g‘aqqillash” o‘rniga, nuqul yoqimsiz tarzda “chiychiylar” emish.

Shunday bo‘lsa-da, ona o‘rdak shu kenjatoyini ham boshqa o‘rdak-chalari kabi yaxshi ko‘ribdi. Bu Irkit O‘rdakcha hovuzda boshqa o‘r-dakchalarga nisbatan ancha dadil suzarkan; uning ishtahasi ham boshqalarnikidan ikki barobar baland bo‘lganidan juda tez rivojlanib, kundan-kunga baquvvatlashib boraveribdi.



Boshqa o‘rdakchalar esa bu kenja ukalarini hech xushlamas ekanlar. Ular



Irkit O‘rdakchaning dumidan cho‘qilashar va uni “paxmoq qarqaraga o‘xshaysan”, – deya mazax qilishar ekan. Xonadon xo‘jaligidagi boshqa hayvonlar ham bu g‘ayrioddiy o‘rdakchani yoqtirishmas ekan.

O‘rdakchalar o‘z onalari ortidan ergashib, donlab yurishar ekan, ular orasidagi beso‘naqay o‘rdakni ko‘rgan tovuq va g‘ozlar ham bir-birlariga qarab:

– Voy, anavi irkit o‘rdakni qaranglar-a, juda g‘alati-ya, – deya pichir-pichir qilisharkan.

– Xo‘sh, u boshqalarga o‘xshamasa nima qilipti? Umuman bu bilan sizlarning nima ishingiz bor! Yaxshisi o‘z ishingiz bilan shug‘ullaning! – der ekan ushbu hovlidagi keksa va donishmand it Reks, g‘iybatchilarga tanbeh berib. Ammo Reksning pand-u dashnomlariga hech kim quloq solmas ekan.

– Voy-ey, basharasi muncha xunuk, – deb miyovlagancha burnini jiyirarkan mushuk. Shu yaqin oradagi supurgi butasini chimdilab yeyayotgan echkilar ham:

– Ishqilib u birorta qamishzorga borib adashib qolsin-u, hovlimizdan qorasi o‘chsin-da. Yo‘qsa uning irkit va yuvuqsiz basharasi hovlimizga isnod bo‘ladi. Boshqa hovlidagi hayvonlar shundog‘am bizning ustimizdan kulib yurishibdi, – der ekanlar.

Irkit O‘rdakcha bu yerdagi birortayam hayvon bilan til topisha olmabdi. Chunki uning o‘zi ham nihoyatda xunukligini, boshqalarga o‘xshamasligini

bilar ekan-da. Haqiqatan ham, Irkit O‘rdakcha o‘zining atrofidagi qushlarning hech biriga o‘xshamas ekan. To‘g‘ri, u ayrim jihatlari bilan hali pati chiqmagan kurkani eslatarkan-u, ammo kurkaning boshida toji bor-da, bunda esa shu toj ham yo‘q ekan. Boz ustiga kurka, ajabtovur tarzda, “g‘ulu-g‘ulu” qilib tovush chiqaradi, u “g‘ulu-g‘ulu” qilishni ham eplay olmaydi, demak, uning kurka emasligi kunday ravshan.

Shundan so‘ng Irkit O‘rdakcha, bu yerda o‘zini hech kim va hech qachon yaxshi ko‘rmasligini anglab yetibdi va o‘ziga boshqa joydan do‘st topishga qaror qilibdi. Shuning uchun u hovlidagi jonivorlar tushlikdan keyin mizg‘iyotganlarida, hech kimga sezdirmasdan hovlidan chiqibdi-da, boshi oqqan tomonga ravona bo‘libdi.

– O‘ylaymanki, mening qochib ketganimni oyimlar ham payqamaydilar, – debdi u o‘zicha. – Onajonim meni judayam yaxshi ko‘radilar, menga mehribon edilar, biroq, baribir men endi bu hovlida yashay olmayman, – o‘ylabdi u o‘ksinib.

O‘rdakcha allanechuk ichki alam va iztirob bilan shu so‘zlarni shivirlab aytar ekan, uning boshchasi beixtiyor pastga egilibdi. Lekin, u baribir, o‘z yo‘lidan ortga qaytmabdi.





Ertasi kuni Irkit O‘rdakcha bir ko‘lning bo‘yiga yetib boribdi, bu yerga uzoq shimoldan qaytayotgan yovvoyi g‘ozlar galasi dam olish uchun qo‘ngan ekan. O‘rdakcha ular orasidagi eng keksa g‘ozning yoniga borib:

– Muhtaram g‘oz bobo, men bu keng olamda o‘zimga do‘st qidirayapman. Sizlar men bilan do‘stlashib, o‘z oilangizga qabul qila olmaysizlarmi? – deya so‘rabdi.

– Sen bizlardan boshqacha qush ekansan, bundan tashqari hali judayam yoshsan, – debdi salmoqlanib keksa g‘oz. – Bizlar yaqinda issiq o‘lkalarga uchib ketamiz. Sen bu olis yo‘l azoblariga chiday olmaysan. Qanchalik rahmimiz kelmasin, seni o‘z to‘damizga qabul qila olmaymiz. Yaxshisi bu borada oqqushlar bilan bir maslahatlashib ko‘rganing ma’quldir?

U shunday deb, Irkit O‘rdakchaga shu yaqin orada suzib yurgan oqqushlar galasini ko‘rsatibdi.

– Oqqushlar! Axir oqqushlar parrandalarning eng oliy tabaqasi, eng go‘zal va viqorli qushlar-ku! Ular mening bu tasqara yuzimga qayrilib ham qarashmasa kerak, – debdi, O‘rdakcha xomush bo‘lib.



– Afsus! Ammo, baribir seni o‘zimizga qo‘sholmaymiz! – debdi g‘oz bobo.Uning “afsus” degan so‘zining o‘ziyoq, o‘rdakchaga qat’iy qilib “bu yerdan jo‘nab qol”, – degandek tuyulibdi.

O‘rdakcha shundan so‘ng yana sohil bo‘ylab ketibdi. U uzoqdan g‘ozlar galasi osmonga ko‘tarilib, parvoz etib ketishayotganligini havas va orziqish bilan kuzatib qolaveribdi. G‘ozlardan keyin, uncha ko‘p vaqt o‘tmay, oqqushlar ham oppoq qordek patlarini yaltiratib, issiq o‘lkalar tomon parvozga ko‘tarilibdilar.

Ko‘l tamoman huvillab qolibdi. Irkit O‘rdakcha esa yana yolg‘iz, och va yupun ahvolda qolaveribdi. U judayam sovqotib ketibdi. Binobarin u hanuz o‘ziga na biror-bir boshpana, na birorta do‘st topolmabdi. Shunda u alam va iztirob bilan boshchasini quyi egib, yana yo‘lida davom etibdi.

Bu orada kuz kelibdi. Endi tunlar borgan sari sovuqroq bo‘la boribdi, bechora Irkit O‘rdakcha endi issiqroq boshpana va yeguligi haqida qayg‘urishi kerak ekan. O‘rdakcha shu niyat bilan qishloqning atroflarini



aylanibdi – u odamlar yashaydigan maskan tegrasida albatta, biror-bir yegulik chiqib qolishiga umid qilibdi.

O‘rdakcha qishloq chetidagi bir uy yaqinida to‘xtabdi. Bu uy yonidagi balchiqli ko‘lmakda bir burdagina suvga bo‘kkan non ushog‘i yotgan ekan. U non ushog‘ini endigina cho‘qiyman, deb turgan ekan: shu payt uy eshigi ochilib, undan munkillagan qari kampir, bir tovuq va bitta mushuk chiqib kelibdi.

Kampirning ko‘zlari yaxshi ko‘rmas ekan, qolaversa, uning ko‘zoynagi ham yo‘q ekan, shu boisdan bo‘lsa kerak, O‘rdakchaga qarab, uni binoyidekkina semirgan, uyidan adashib qolgan birorta xonaki o‘rdak bo‘lsa kerak, deb o‘ylabdi. Keyin unga yaqin kelib:

– Hoy, sen kimning o‘rdagisan? – deya so‘rabdi. O‘rdakdan sado chiqmagach. – Demak, hech kimniki emassan.Unda mening o‘rdagim bo‘lasan! – debdi xursand ohangda. – Qani menga yaqinroq kel-chi, qo‘rqma, men seni yeb qo‘ymayman! – kampir shunday debdi-yu, O‘rdakchani uyiga olib kirib ketibdi.

Kampir kambag‘algina yashar ekan. Uning bor davlati – shu bir tovug‘i-yu, bir mushugi ekan, xolos. U endi bu topib olgan o‘rdagim har kuni menga bittadan tuxum tug‘ib bersa, yaxshiroq yashay boshlayman, degan o‘yda ekan .

Irkit O‘rdakcha bu uyga joylashgach, binoyidek kun ko‘ra boshlabdi: axir bu yerda yotoqjoyi bor, qolaversa och ham qolmaydigan bo‘libdi-da. Uydagi mushuk bilan tovuq ham uni do‘stona qarshi olishibdi. Kampir har kuni ertalab bu uydagi hayvonlarni o‘zicha siylarkan: ya’ni mushuk-ka – bir kosachada sut, tovuqqa – don, Irkit O‘rdakchaga esa non ushoqlarini hamda bug‘da pishirilgan kartoshka berarkan.

O‘rdakcha hali juda kichkina bo‘lgani uchun, tuxum qilishni bilmas ekan! Oradan bir necha kun o‘tib, kampir afsuslangan ovozda O‘rdakchaga shunday deb qolibdi:

– Menga tuxum qilmaydigan o‘rdak sira kerak emas. Men o‘z kunini ko‘rish uchun biror-bir xizmatni ado etmaydigan tekinxo‘rni boqadigan

ahvolda emasman. O‘zim chor-nochor bo‘lsam... Shuning uchun O‘rdak oyim, buyog‘iga to‘rt tomoning qibla... qayoqqa borsang, o‘zing bilasan...

Bu yerdan ham quvilgan bechora Irkit O‘rdakcha yana o‘sha o‘ziga tanish ko‘l bo‘yiga kelibdi. U xuddi katta qushlar kabi o‘t-o‘lanlar, shilliqqurtlar bilan oziqlanmoqchi bo‘libdi. Ammo havo ancha sovib qolganidan, o‘tlar ham muz qotib, tarashadek bo‘lib qolgan, shilliqqurt va chuvalchanglar ham suv tubiga tushib ketishgan ekan. Irkit O‘rdakcha yana yolg‘iz o‘zi sovuq va qahraton qish iskanjasida qolaveribdi.

O‘rdakcha juda holdan toyib, sillasi quribdi. U bir amallab suv yuzasiga o‘tirib olgan ekan, suv to‘lqinlari xuddi uni allalagandek chayqab ko‘l ichkarisiga oqizib ketibdi. Keyin u shu qadar darmonsizlanibdi-ki, hatto sohilga suzib chiqishga ham quvvati yetmabdi. Kuchli sovuqdan ko‘ldagi suv muzlay boshlaganda, Irkit O‘rdakcha o‘zi ham tobora muzlab borayotganligini payqabdi. Uning suzgichli panjalari, qanotlari muz orasida qotib qolibdi; u endi istasa ham sohilga chiqa olmas ekan.

Shunda Irkit O‘rdakcha o‘zining g‘arib qiyofasini akslantirib turgan muzga qarashni ham istamaganidan ko‘zlarini butkul yumib olibdi. U o‘zicha: “Tamom, endi men o‘lyapman”, – deb o‘ylabdi... Biroq, shunda kutilmagan voqea sodir bo‘libdi. Bu nimasi tag‘in? Muz avvaliga g‘alati tarzda silkinibdi, keyin qisirlab sinibdi, qandaydir bir odamning qo‘li Irkit O‘rdakchani azot ko‘tarib olibdi-da, issiq yopinchiqqa o‘rab, qayoqqadir olib keta boshlabdi. Nihoyat uni issiq va shinam bir xonadonga olib borishibdi...

Irkit O‘rdakcha darmonsizlik uyqusidan ko‘zini ochib qarasa, charog‘on bir xonada, yuz-ko‘zlari kulib turgan bolakaylar qurshovida emish. Ulardan biri O‘rdakchaning muzlab qolgan panjalarini ishqalab isitarmish. Boshqasi esa pishloq va kartoshkadan tayyorlangan alomat yeguliklar bilan uni siylarmish.

– Dada, dadajon, qarang u tirik ekan! – deya birvarakay chug‘urlashibdi bolakaylar, o‘rdakchaning uzun bo‘yinchasini silab-siypalasharkan. – Ha,



endi u sirayam o‘lmaydi! – qiyqirishibdi yana ular biri-biriga gap bermay. – Dada, qarang, u nimadir yemoqchi!

Bolalar biram mehribon ekanlar-ki, o‘rdakchaning o‘zlari tutgan yegulikni cho‘qilash uchun tumshuqchasini ochganiga ular shu qadar suyunishibdi.

Ular “dada” deb murojaat qilishayotgan mehribon odam, hali Irkit O‘rdakchani muzli suv changalidan ko‘tarib olib kelgan kishi ekan. U o‘rdakchaning boshi uzra egilibdi-da, uning boshchasi va bo‘ynini mehr bilan silar ekan, shunday debdi:

– Ha, mittivoy, qalaysan! Hali bahorgacha uzoq. Qishni shu yerda o‘tkazishingga to‘g‘ri keladi. Bizlar bilan qolasan!

Irkit O‘rdakcha o‘ziga ko‘rsatilayotgan bunday izzatdan esankirab, o‘zi uchun kutilmaganda haqiqiy do‘stlar topganini dabdurustdan anglay olmabdi. Oradan bir necha kun o‘tib, u ancha quvvatga kiribdi. Shundan so‘ng bemalol bolalar bilan birga o‘ynay boshlabdi, bu yerda u o‘zini

mutlaqo xavfsiz va xotirjam sezarkan. Shu boisdan tez kunda u o‘zining yangi xo‘jayinlarini judayam yaxshi ko‘rib qolibdi.

Bahor ham kelibdi. Bolalar tez-tez o‘zlarining qanotli do‘stlarini olib sayrga chiqisharkan. Ular gohida O‘rdakchani boshlab qushlar uchishni mashq qiladigan tepaliklardan iborat adirga, gohida esa, O‘rdakcha nihoyatda yoqtiradigan ko‘l bo‘yiga borisharkan.

– Bu qanotli do‘stingiz, yovvoyi qush, istaysizmi, yo‘qmi baribir, biz uni erkinlikka qo‘yib yuborishimiz kerak! – debdi bir kuni O‘rdakchaning hayotini saqlab qolgan mehribon kishi bolalariga qarab.

– Yo‘q, dada, u endi yovvoyi qush emas, u bizning qushimiz! – deya chug‘urlashibdi bolakaylar bir ovozdan. Va otalaridan o‘rdakni uylarida qoldirish uchun ruxsat so‘rashibdi. – Qushimiz ham bizlarni yaxshi ko‘radi. Axir biz uning yagona oilasimiz-da! – deyishibdi ular...

– Mayli, buni hali ko‘ramiz, yaqinda yovvoyi oqqushlar issiq o‘lkalardan qaytishsin-chi. Shunda qushingiz kimlar bilan yashashini o‘zi tanlaydi! – debdi ota. Garchi bu gapdan bolalar biroz xafa bo‘lishsa-da, rozilik bildirishibdi.

Kunlar isigach, oqqushlar olis o‘lkalardan qaytib kelishibdi.

Bir kuni Irkit O‘rdakcha har doimgiday bolakaylar bilan qadrdon ko‘lning bo‘yiga kelibdi. Shunda kutilmaganda, oppoq qanotlarini shapillatib bir gala oqqushlar uning yoniga suzib kelishibdi. Buni ko‘rgan



Irkit O‘rdakchaning shodlikdan yuragi hapriqib, ovozi ham chiqmay qolibdi.

– Oh-ho, sen ham bizning naslimizdan ekansan-ku! Kel bizning safimizga qo‘shil! – deyishibdi unga oqqushlar.

– Men... men oqqushmanmi?! Men hali shohona qushlar naslidanman-mi?! – hayajonlanib ketibdi Irkit O‘rdakcha. Va shunday deya, o‘zining aksini ko‘rish uchun suzgichli panjalari ostida mavjlanib turgan suvga qarabdi.

U tikilib qarasa, chindan ham ko‘zgudek tiniq suv yuzasida avvalgi ko‘rimsiz, paxmoq va irkit, kulrang O‘rdakcha emas, balki nihoyatda chiroyli , qanotlari qordan ham beg‘ubor bir oqqush unga qarab turganmish.

Xullas, shunday qilib, Irkit O‘rdakcha o‘z oilasini ham, yaqin do‘stlarini ham topib, ular bilan birgalikda baxtli yashay boshlabdi. Uning qadrdon do‘stlariga aylangan bolakaylar ham o‘z qushchalarining chin baxtini topganligidan xursand bo‘lishibdi. Ular har kuni ko‘l bo‘yiga qanotli do‘stlaridan xabar olgani kelishar, nafaqat ushbu qishloqdagi, balki butun muzofotdagi eng chiroyli bo‘lgan o‘z Oqqushlarining ko‘lda suzishini maroq bilan tomosha qilar ekanlar...



MUNDARIJA

ETIK KIYGAN MUSHUKCHA 3
ZOLUSHKA.....12
QIZIL QALPOQCHA.....24
UYQUDAGI MALIKA.....32
OPPOG‘OY.....43
PINOKKIO.....55
IRKIT O‘RDAKCHA.....68



ENG MASHHUR ERTAKLAR

Muharrir *Ilhom Zoirov*
Texnik muharrir *Xosiyat Hasanova*
Musahhih *Dono To'ychiyeva*
Kompyuterda sahifalovchi *Hilola Sharipova*

Nashr. lis. AI № 290. 04.11.2016. 17.09.2019-y.da bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $^{1}/_{16}$. Times TAD garniturasi. Ofset bosma. 8,40 shartli bosma toboq.
7,82 nashr tobog'i. Adadi 5000 nusxa. 225-raqamli buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent, Labzak ko'chasi, 86.

Telefonlar: (371) 241-25-24, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz, info@gglit.uz